



**Mustaqillikka erishganimizdan buyon ta'lim sohasi bir necha bor isloq qilinganiga qaramay, "yangi qadamlar" joyidan siljimayapti. Maktabni bitirib ham eng oddiy bilimlarni o'zlashtirmay qolayotgan yoshlarimiz ko'paymoqda.**



## Poydevor eski bo'lsa, islohot samara bermaydi

Har qanday ijtimoiy tuzum o'zining falsafiy poydevoriga ega. Shuning uchun ham islohotlar zamirida, avvalo, ilmiy-falsafiy asos bo'lishi muhim. Shuning uchun ham 30 yil davomida ta'lim sohasidagi islohotlar poydevori qanday ilmiy-falsafiy asoslarga, metodlarga qurilganligini aniqlash muhim bo'lib qoldi. Chunki shu vaqtgacha bu islohotlar ishlamadi, o'z mevasini bermadi. Sababi, islohotlar ta'limga eski poydevor asosiga qurilayotgandi.

Sobiq tuzum davrida dialektik materializm g'oyasi o'laroq o'quvchiga obyekt sifatida qaraldi va bu hozirgacha davom etmoqda. Ta'limga bolalarning rivojlanish jarayonini nazorat qilish emas, natijani ko'zlash muhim sanaldi. Shu bois o'quvchilar uchun bilimning mohiyati yoki o'zi bajara olgan ish natijalar emas, balki baho olish asosiy maqsadga aylanadi. Ijtimoiy hayotga tayyor bo'lish, qiyinchiliklarni salohiyati orqali yengish, olgan bilimlarini amalda qo'llay olish malakalari deyarli rivojlantrilmadi.

Xo'sh, bugungi kunda ta'limga qanday mazmunda yondashish talab etilmogda?

1998-yili qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturida komil insonni voyaga yetkazish vazifasi qo'yilgan edi. Kerakli ilmiy-falsafiy asos bo'Imagini uchun bu vazifani qanday bajarishning ilmiy-metodologik asoslari yoritilmadi va rejalar o'z joyida qolib ketdi. Vaholanki, komil inson g'oyasi Sharq falsafasida muhim o'rinni kelgan.

Shu bilan birga Sharq falsafasining Ovrupo madaniyat taraqqiyotida tutgan o'rni beqiyos. Zero, insoniyat olamini o'rganishda bu falsafaning poydevori hali ham o'z o'rniда mustahkam turibdi. Shu sababli G'arbda boshqa fanlar qatorini pedagogika va psixologiya ham amaliyoti bilan birgalikda rivojlandi. Sharq falsafasida inson masalasi muhim o'rinni tutgani uchun ta'limga tarbiya, o'quvchiga munosabat, unga taqdim etiladigan barcha pedagogik instrumentariylar (darslik, metod va h.k.) o'quvchining

o'zi uchun xizmat qilishga qaratilgan. Ya'nii, shaxsga subyekt sifatidagi munosabat bosh bo'g'inni tashkil etgan.

Ta'kidlab o'tilganidek, har qanday tub islohotlar zamirida, avvalo, ilmiy-falsafiy asos bo'lishi muhimdir. Shu jihatdan ham ta'lim tizimi, mazmuni obyekt emas, subyekt sifatida shaxsga bo'lgan har tomonlama munosabat (bu munosabatlarga o'quvchiga taqdim etilayotgan o'quv dasturlari, darsliklar, qo'llanmalar va shularni to'g'ri taqdim etishga o'rgatadigan metodikalar kiradi), ana shu munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'ya oladigan, shaxsning inson sifatida har tomonlama uyg'un ravishda rivojlanib borishiga, bugungi 7 yoshli bola o'n yillardan so'ng ijtimoiy hayotda o'z o'mini topa olishiga yordam bera oladigan, malakali pedagogik kadrlarni tayyorlashning ilmiy-falsafiy tizimini ishlab chiqish zarurligiga ehtiyojimiz bor.

Lekin bizning bankimizda faqat dialektik materializm falsafiy yo'nalishi saqlanib qolganligi ta'lim sohasida qanchalik islohotlar qilinmasin, aytilib o'tilganidek, samarali natija bermaydi. Ta'limga o'quvchiga subyekt sifatida qaralmas ekan, hech qachon maqsad amalga oshmaydi!

Biz chet le tajribalarini tushunar-tushumas tattib etamiz. Vaholanki, Sharq falsafasida muhim o'rinni tutgan tasavvuf ta'lomi aynan Ovrupo madaniyati, taraqqiyotining beshigi bo'lgan desak, yanglismaymiz. Tasavvuf ta'lomi Ovrupo pedagogika fani amaliyotining, ruhshunoslikning rivojlanishida muhim o'rinni tutgan. Hozirgi vaqtida jahonga mashhur R.Shteyner(Valdorf pedagogikasi) maktabi tasavvuf ta'lomi asosida yuzaga kelgan.

Komil inson — aslida gumanizm g'oyasidir. Biz ko'p narsamizni boy berib qo'yidik. Ana shu g'oya ustun bo'Imagini uchun ham jamiyatimizda zo'ravlonik ustun, insonning qadr-qimmati cho'kib boryapti. Shuning uchun ham hozirda darsliklar, dasturlar, avvalo, Sharq falsafasiga asoslanib, ilmiy-falsafiy poydevorni yaratishi zarur.

Yulduz AMIRJONOVА

## Xalq ta'limi vazirligiga murojaat:

# O'zingizga

1985-yil noyabr oyida Samarqand viloyatining Qo'shrabot tumanidagi maktablardan birida o'qiyidigan o'quvchilardan shikoyat xati keldi. Unda aytishicha, sinf rahbari "Gulxan" jurnalni obunasi uchun bolalar dan yig'ilgan pullarni o'z manfaati yo'lida ishlatalib yuborgan emish. U paytlarda jurnalimiz obunasi 500-600 ming nusxada bo'ldardi (o'shanda obuna uchun bugungidek kuyib-pishmasidik). Bir yilda tahririyatga o'quvchilardan 40 mingdan ziyod maktub kelar, biz iloji boricha maktablarga vaqtida javob berishga harakat qilardik. Bu safar ushbu shikoyat xatini o'rganish masalasi mening chekimga tushdi.

— O'h-ho', bu tog'li tuman, hozirgi sovuq kunlarda yo'llar anche xavfli qiyalib qolmasmikansiz, singlim. Yaxshisi, o'zimiz hal qilib bera qolaylik, — deyishdi viloyat xalq ta'limi boshqarmasidagilar. Lekin men, muammoni o'zim o'rganib, hal qilishim kerak, deb bu taklifga rozi bo'lmadim. Boshqarma xodimlaridan biri bilan tumanga yo'l oldik. Qiziq'i, tumanida maktab haqida yaxshi fikrlar aytishdi. Ammo u yerga borishimga ular ham unchalik ro'yxush bermadi. Chunki tog'li qishloqdagi bu maktabga qorli-qirovli kunda yetib borish mushkul ekan. Niroyat amallab "Niva" avtomobili topib, meni maktabga olib borishdi. Maktab deganlari paxsadanmi, sinchdanmi qurilgan uch xonali g'aribgina bino ekan. Muxbir kelishimi eshitishgan shekilli maktab hovlisi supurib sidirilgan. Havo souvuq. O'quvvchilar xonasining derazaga yaqin joyiga o'rnatilgan temir pechkaga g'o'zapoya yoqib xonani isitib qo'yishibdi. Biz tushdan keyin boranimiz uchun darslar tugab o'quvvchilar uylariga ketgan ekan.

— Tog' qishlog'ida uylar xutor sistemadagidek tarqoq, aholi ham siyrak. Maktabimizda shuning uchun ikkita-uchta qishloq bolalari kelib o'qishadi, — dedi direktor. — Tog' so'qmoqlarida qorong'ida yurish xavfli. Uzr, shu bois o'quvchilarga javob berib yuboraverdi.

Maktabda 110 bola o'qir ekan. O'quvvchilar xonasining bir chekkasida kutubxonasi tashkil qilingan. U yerda o'ndan ortiq gazeta-jurnallar taxlami bor edi. Xatda aytilan sinf rahbari Ishtixon tumanida paxtada ekan. Chaqiritishibdi. Biroz o'tib o'quvvchi gunohkorlarcha kirib keldi. Eginda paxtali chopon, boshida qulochqin, soqollari o'sib ketgan. Pulni obuna uchun yiqsan-u, pochtaga olib borib topshirishga ulgurmay paxtaga ketib qolgan ekan.

Rang ko'r, hol so'r. Sho'rik o'quvvching ahvolini ko'rib biror nima deyishga jur'atim yetmadidi. Ammo uning sinfi juda kitobxonasi sinf kan. Deyarli butun sinf har yili bolalar gazeta va jurnaliga obuna bo'lar ekan. Maktabning ta'lomi sifati ham yuqori. O'quvvchilar fan olimpiadialarida, sport musobaqalarida tumanda birinchilaridan ekan. Shu sharoitda ham qishloq bolalarining iste'dodini yuzaga chiqarishga intilayotgan, kasbiga fidoyi o'quvvchilariga rahmat aytib qaytdim. Keyingi sonda o'sha maktab bolalari yozgan she'rlarni jurnalda e'lon qildik.

Mustaqillik tufayli ta'limga tizimida juda katta o'zgarishlar yuz berdi. Maktablarga jiddiy e'tibor qaratildi. Iloji boricha ular ta'mirlandi. Kerakli jihozlar bilan ta'minlayapti. Ammo hozir respublikadagi barcha maktablarda o'quvvchilar zamonaviy talablarga to'liq javob beradi-

gan, oppoq, yorug' shinam sinfonalarida mazza qilib o'qiyapti, desak, o'zimiz aldagani bo'lamiz. Bugungi kunda ham respublikadagi 10 mingta maktabning hech bo'lmaganda 1000 tasi o'sha men tasvirilagan paytdagidagi nochor ahvolda. Xususan, yaqning ijtimoiy tarmoqlarda "mashbur" bo'lgan Chortoq tumanı Buloqboshi qishlog'ida maktab buning isbotidir.

Ayting-chi, o'shanda ahvoldagi maktab o'quvvchisini Xalq ta'limi vazirligi talab qilganiday har to'rt oyda imtihon qilish adolatdanmi?! Axir bu yerdagagi kutubxonada o'quvvchi o'z ustida ishlashi uchun biorota yangi uslubiy qo'llanman, yangilikdan xabardon bo'lishi uchun gazeta-jurnal, "gingjinglab" ishlab turadigan internet tarmog'i bormikan!?

Shu orada bir latifa esimga tushdi. Aytishlaricha, Angliya shahzadalardan birtorin tuda yomon ko'ra ekan. Lekin har doim dasturxonida tort bo'lar ekan. Bir kuni angliyalik ishchilar namoyishiga chiqishibdi. "Ular nimani talab qilishayti?", — so'rabdi shahzoda a'yonlardan.

— Maoshlari nonga yetmayotgan emish. Ish haqini oshirishni talab qilishayapti.


— Shunga shunchami, nonga pullari yetmasa, ana tort olib yeyishsin, — debdi shahzoda.

Har bir xodimning xonasida so'nggi rusumdagagi zamonaviy kompyuter ishlab turgan Xalq ta'limi vazirligidagilar ham aqallli gazeta-jurnal vaqtida yetib bormaydigan maktab o'quvvchilarini gazetanining elektron shaklini o'qishga, ya'nii internet dan foydalananishga chorlayotgani shu latifadagi holatga o'xshamayaptimi?

Xalq ta'limi vazirligidagilar, ayting-chi, devori nurab, yiqilay deb turgan, sinfonalarida shamol xushtak chalib, doskasini tortqilayotgan abgor maktab o'quvvchisi sinfiga yoki darslari tugatib, uyiga kelib o'sharol kompyuterni yoqib, "Ziyonet" tarmog'iga ularan, sohadagi yangiliklardan bir zumda xabardon bo'ladi, malakasini oshiradi, deb ishonmasizmi? Ishonmaysiz. Chunki siz o'sha o'quvvchi ishlaydigan va yashaydigan sharoitdan sal bo'lsa ham xabardorsiz. Birinchidan, aksariyati qishloq maktabidagi o'quvvchi ro'zg'ordan orttirib o'ziga kompyuter sotib ololmaydi. Bordi-yu, omadi chopib, topganini yemay-ichmay yig'ib-terib kompyuterga ega bo'lgan taqdirdira ham undan muntazam ravishda foydalana olmaydi. Buning uchun elektr pand beradi. Axir, bu yerlarda chiroq ham doim bo'lavermaydi-da. Buni pandemiya vaqtida tom tepasida telefonini ko'tarib antenna qidirgan muallimlar tajribasida ko'rdik-ku! Vazirlik esa, "har bir o'quvvchini har to'rt oyda imtihon qilamiz, fanini yaxshi bilmasa, ishchan bo'shatamiz", deydi. Nahotki vazirlilik tizimidagilar hali ham dag'dag'a, po'pisa bilan rivojla-

Agar o'sha sinovdan o'tgan "baxtli" direktor, ishlagan muktab, shahar, qishloq uchun mutlaqo begona kishi bo'lsa-chi.

# qarab to'n bichmang!



Nasafnews.uz

nishga erishib bo'ladi, deb o'yashsa. Aslida o'qituvchini bo'shatishni emas, balki unga amaliy yordam berishni, zakovatda, bilimga tashnalikda markazdan qolishmaydigan, bolalarni kamonga yetishiga xizmat qiladigan muktab binosi qurib berishni o'ylash lozim. Respublikadagi barcha umumta'lim muktablarini poytaxtdagi yoki viloyat markazlaridagi muktablar qarichi bilan o'chmaslik kerak.

"Muktablar ta'lim berish emas, ish berish muassasasiga aylanib qolgan", deyilibdi Xalq ta'limi vazirining Oliy Majlis. Senatiga yuborgan hisobotnomasida. Bu yerda tanish-bilishchilikka sha'ma qilingani tushunarli. Ammo bu ham anche bahsli masala. Nega desangiz, ta'lim tizimidagi o'zgarishlar natijasida birdaniga pedtexnikum, pedkollejni bitirib chiqqan o'qituvchilarga dars berilmaydigan bo'ldi. Tasavvur qiling, bu qancha o'qituvchining ish-siz qolishiga olib keldi. Qo'lida ishlagan o'qituvchisining tajribasini, malakasini bilgan direktorlar ana shu "bilmasdan" kollejda o'qib qo'yan o'qituvchidan foydalanishga harakat qildi. Unga rasm, musiqa darslarini berdi. Buning nimasi yomon. Balki o'sha "kollejchi" o'qituvchi oly ma'lumotli o'qituvchidan rasmiyi yaxshiroq chizar, musiqa yaxshiroq tushunar. Uni o'quchiga sodda, chiroyli uslubda o'rgata olar. Aslida ham shunday. Bir vaqtlar mahallamizdagi muktabda Muhabbat Ungerboeva ismli boshlang'ich sinf o'qituvchisini bo'lardi. Qishlog'i imizning deyarli barcha ota-onasi farzandi, nabirasi dastlabki ta'limni Muhabbatdan o'rganishini xohlardi. Chunki u chinakam muallim edi. U o'qitgan o'quvchilarining husnixati chiroyli, o'zlashtirishi a'lo, odobi ham shunga yarasha bo'lardi. Vaholanki, u ham pedtexnikumni bitirgan edi. Yuqorida aytganimiz o'zgarishlardan so'ng Ungerboeva ishdan bo'shab, uyuqoldi. Shuncha tajriba, bilim ham uyga qamalди. Oliy ma'lumotli, ammo hali tajribasini o'qituvchi qo'lida o'qiyotgan bolalarning ota-onalarini, bolalarini darsdan so'ng qo'shimcha saboq olishi uchun aynan uning uyiga olib kelishardi. Hozirgi til bilan aytganda — Muhabbatni o'zlariga repetitor qilib saylashdi.

Bir kuni Nasriddin Afandining qitmirligi tutib to'ya boy qo'shnisining kimxob to'nini kiyib boribdi. Uning

salobatini ko'rgan mezbonlar Afandini to'rga o'tqazishibdi. Oldiga qazilar to'g'ralgan norin, qip-qizarib qovurilgan baliq, jizzali patirlarini taxlab tashlashibdi. Afandi darhol to'nini yechib, "ye, to'nim ye, bu menga emas, senga ko'rsatilayotgan iltifot", degan ekan. Shunga o'xshab agar hamma gap diplomda bo'lsa, nega diplomi o'qituvchining shogirdlari barchasi birday a'lochi bo'lib ketmayapti. To'g'ri, diplom kerak. O'rta maxsus ma'lumotli o'qituvchi ham olyi ma'lumotli diplom egasi bo'lishni istaydi. Ammo qanday qilib! Xayriyat, hozir sirtqi, kechki bo'limlar ochildi. Ammo kontrakt pulini to'lashga o'sha o'qituvchining hammasi ham mablag' topa oladimi? Balki malakali, tajribali, muktab jamoasi uchum zarur kadrlarni tekin o'qitish yoki tuman xalq ta'limi bo'limi yelkadosh bo'lishi kerakdir?

Bizda "sallasini olib kel, desa, kallasini olib borishadi". Ma'lumotlarga ko'ra, ayni paytda 80 mingga yaqin olyi ma'lumotli o'qituvchi ishsiz emish. Ularga o'ren ochish uchun hech o'yab o'tirmay pensionerlarga ariza yozdirib olishadi. Uning bilimi, tajribasi, kuch-quvvati bilan hisoblashib o'tirilmaydi. Ammo o'sha pensionerning o'miga kelgan yosh mutaxassis bolaga o'sha keksa o'qituvchi berganchalik bilim bera oladimi, mehrni qozona oladimi, bu bilan mutasaddilarning ishi bo'lmaydi. Chunki buyruq shunday. To'g'ri, yoshlara ish kerak. Ammo bilimli ustoz ham. Agar o'sha yosh o'qituvchi uch-to'rt yil ustoz yonida mala-ka oshirsra, kimga foya, kimga zarar? O'qituvchilar ko'payib ketgan bo'lsa, ikki-uch yil pedagogika sohasidagi olyi ta'lim muassasalariga qabulni kamaytirish lozim. Ammo bunday qilinmaydi. Chunki kontrakt to'lab o'qiyidigan talaba qancha ko'p qabul qilinsa, olyi o'quv yurti moddiy jihatdan shuncha mustahkamlanib oladi-da! Qarang, hozir markazlardagi muktblarning har bir sinfida 33-35 o'quvchi o'qydi. Bu bir paytlar Xalq ta'limi vazirligida ishlagan opamiz tashabbusi bilan bo'lgan. To'g'ri-da, sinflar soni qisqarsa, qisqargan sinf hisobidan maoshlar tejaladi. Go'yo mamlakat budgetini o'yab qilingan harakat. Ammo ma'nayiyatdan tejalgan mablag', ayniqsa, yoshlar ta'limidan tejalgan mablag' ertaga mamlakat kelajagi uchun qanchalik ulkan zarar keltirishini o'yab ko'rismaydi. Agar

sinfida 22-25 o'quvchi o'qisa, sinflar soni ko'payadi, o'qituvchilarga ish o'mi ochiladi. Ta'lim sifati yaxshilanadi. Chunki 35 o'quvchi bilan ishslashdan ko'ra 25 o'quvchi bilan ishslash, ularning qiziqishi, layoqatini sezish, shunga ko'ra har bir bolaga alohida yondashishancha samarali bo'lishi aniq. Ma'lum muddat ba'zi sabablarga ko'ra muktabda dars bergenman. O'zimdan katta o'qituvchidan ish o'rganish uchun uning darsida qatnashdim. Ustoz dars paytida Qodirov degan bolaga ko'p e'tibor qaratdi. Avvalambor, sal oldingiroq qatorga o'tqazdi. Keyin unga maxsus topshiriq berdi. U bilan boshqa bolalarga qaraganda iliqroq munosabatda bo'ldi. Yozuvini maqtadi. Bahosini oshiribroq qo'ydi. To'g'risi, bundan g'ashim keldi, tanaffusda e'tiroz bildirdi.

— Qodirov sal to'polonchi. Keyin, darsni qabul qilishi qiyinroq. Unga yaxshi gapirib, yutug'ini maqtab tursangiz, o'rganishga intiladi. Aks holda hammasini tashlab qo'yadi, — dedi ustoz. Mana shu tajriba va pedagogik mahorat deyiladi. Agar o'sha bula tajribasiz va yosh o'qituvchining sinfida o'qiganda yomon o'qiydiganlar qatoriga tushib qolish ehtimoliyuqori bo'lardi. Tan olish lozim, har qanday mahoratlari pedagog ham sinfdagi 40 bola bilan birday ishlay olmaydi. Barchasini birday yaxshi ko'rgani bilan qirqta bolaga birday dars o'tolmaydi. Bu esa ta'lim tizimidagi katta fojalardan biri. Chunki o'quvchi ustozni hurmat qilsagina, uning darsini o'zlashtirishga harakat qildi.

Xalq ta'limi vazirligi tomonidan taklif qilinayotgan "islohot"lardan yana bira muktablarda ona tili darslarini qisqartirish. Nima emish, dars soato ko'p bo'lsa ham bola ona tilini yaxshi o'zlashtirira olmayotgan emish. To'g'ri gap. Ammo uning ildiziga qarang — bunga kim aybdor, o'quvchimi, o'qituvchimi?

Birinchidan, ko'pchilik aytganiday ona tili darslarklari ancha murakkab tuzilgan. O'quvchiga zarur bo'Imagan boblar, masgh'ulotlar ko'p. Ikkinchidan, 35 bolaga ana shu murakkab darslikni sodda qilib yetkazish oson emas. Nima uchun biz xorijiy tillarni o'rgatishda o'quvchilarni teng ikkiga bo'lib o'qitamizi, una tilimizda bunday qilmaymiz. Agar bolalar soni kamaysa, o'zlashtirish osonlashmaydimi, o'qituvchini mushkuli oson bo'lmaydimi. Yana alam qiladigani, hozir

o'zbek tilidan ko'ra ko'proq rus tilidagi muktablarga bolalarni berish urf bo'ldi. Nima emish, bola xorijiy tilni bilsa kelajagi porloq bo'lar emish. Qiziq, uning kelajagi qayerda porloq bo'ladi? Albatta, chet elga borib ishlasa, kimgadir mardikor bo'lsa. Agar u bilimli bo'lib O'zbekistonda qolsa, unga xorijiy tilni bilish unchalik ham muhim emas. Chunki atrofi to'la millatdoshlar. Bir tilda gaplashadi, bir dilda o'ylashadi. Odam o'z yurtiga naf keltirishi kerak emasmi? Qani, bizdagi milliy g'urur, milliy or?! Nahotki undan tirikchilik, yaxshi yashash uchun kechib yuborsak. Endi ona tili darslarini qisqartirilib, rus tili soatları ko'paytililar emish. Buni qanday tushunasiz? Hamonki o'zbekchani bilmasa, unda rus tilini o'rgansin, ruscha fikrashi uchunmi? Umuman, boshlang'ich sinflarga xorijiy tilni o'rgatish kerakmi? Millatning bolasining tili o'zbek tilida chiqsa, uning jozibasini, leksik bo'yoqlarini, gapdag'i o'mini, sinonim, omonimlarini, qochirim, pichinglarini yaxshilab o'rganib olsa, unga chet tilini o'rganish, solishtirish, o'z tilining yutuqlarini sezish oson bo'ladi.

Yana meni cho'chitgan narsa — direktorlarning endi maxsus sinovlardan o'tkazib saylanishi. Agar o'sha sinovdan o'tgan "baxtli" direktor, ishlagan muktab, shahar, qishloq uchun mutlaqo begona kishi bo'lsa-chi. U jamoaga maxsus tayyorgarlikdan o'tib, muktab jamoasini tarbiyalab qo'yaman, yaxshi dars bersa bersin, bo'lmasa, katta ko'cha deb kelsa-chi. Axir o'qituvchi ham inson, unda ham qalb bor. U ham yaxshi gapga muhtoj. Agar muktabga jamoa bilgan, hech bo'lmaganda tadbir-larda ko'rib yurgan kishi rahbar bo'lsa, bu boshqa gap. Chunki u jamoani ham, har bir o'qituvchining yutuq-kamchilagini, oilavli sharoitini biladi. Shunga qarab ish tutadi. Aks holda o'qituvchi xuddi ertaga ishdan haydaladigandek hadik bilan dars o'tsa, o'qituvchilar bir-birlariga hadik bilan qarasa, bilmaniganini hamkasbidan so'rashga cho'chisa, jamoadan ahillik ketسا, kimdir yangi direktorga yoqish uchun maxfiy ma'lumotlarni yig'a boshlasa, har to'rt oyda bo'ladigan sinovdan qo'rqiб xavotirda tursa, toifamni tushirishsa yoki ish-dan bo'shatishsa, nima qilaman, qayerga boraman degan xavotirda yursa, u yaxshi dars o'ta oladimi? O'z ustida ishslash uchun unda keyifyat bo'ladi, ana shular haqida o'layapman. Yangi O'zbekiston muktab ostonasidan boshlanadi, dedi Prezidentimiz. Bu juda katta ishonch, juda katta mas'uliyat. Mam-lakatimizda o'qituvchining obro'sini oshirib, uni ham moddiy, ham ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlanayotgan paytda yuqoridagi masalalarni hal qilish kerak. Ustoz otangdan ulug', otangday emas. Chunki ota bolani osmondan yerga olib tushsa, ustoz zakovatlari, fikrati, bilimli qilib uni osmonga olib chiqadi. Shu bois ham ustozni otadan-da ulug' deb ardoqlashadi. Shunday ekan, o'qituvchilar, ta'lim sohasini rivojlantirishda hazratli ustozlar sha'niga tegmaydigan, ularning ota-onalar, o'quvchilar orasida obro'sini ko'taradigan fikrler izhor qilaylik. Ularни qo'llab-quvvatlaylik. Chunki siz bilan bizning, Vatanimizning kelajagi ular qo'lida kamol topadi.

Muhabbat HAMIDOVA

"Yoshlik" jurnalining 1986-yil 10-sonida Chingiz Aytmatov bilan "Литературная газета"ning o'sha yilgi 33-sonida berilgan "Yo hayot, yo mamot" sarlavhani suhbat tarjimasi bosilgan edi. Unda millat ma'naviyati, milliylik mavzusida bahs yuritilib, yozuvchi o'sha davrdagi amalparast demagoglar mahmadonaligi sabab milliy til kamsitilayotganini tanqid qiladi. "Toki til mavjud ekan — xalqning umri boqiyidir. Har bir til muayyan xalq uchun aziz hisoblanadi. Har birimiz bizni voyaga yetkazgan, bizga eng bebaho boyligini — tilini hadya etgan xalq oldida qarzdormiz: tilimizning sofligi uchun, boyishi uchun jon kuydirsak, farzandlik burchini ado etgan bo'lamic", deydi yozuvchi.

## Internet o'zbekchani biladimi?

Mustabid tuzum davrida milliy til muammosini bu tarzda dangal muhokama qilish uchun Chingiz Aytmatov bo'lish kerak. KPSS siyosatiga mos tushmaydigan har qanday fikri ta'qib qilgan sovet senzurasi ning Aytmatovni qaychilashga jur'ati yetmagan. Turkiy xalqlar iftixori bo'lgan adib SSSR xalq deputatlarining birinchi syezdida ham xuddi mana shu ohanga so'zlaydi. Adib itifoqdosh respublikalarda milliy tilga davlat tili maqomini berish masalasida kechayotgan qizg'in jarayonni qo'llab-quvvatlaydi va qat'iy qilib, mahalliy xalqlarning tili davlat tili bo'lishi kerak, deydi.

Qayta qurish, oshkoraliq davrida ham shahar-u qishloqlarda oddiy odamlar turli majlis va yig'indilara xijolatdan terga tushib, "O'zbek tilida gapisam maylimi?" deya aybdordek yelka qisganini hali ko'pchilik esdan chiqargani yo'q.

Til — millat ko'zgusi, ajoddarlidan qolgan bebaho meros, bobolarimizning noyob madaniy merosi va qadriyatlarini avlodga yetkazuvchi vositadir. Til — milliy o'zlik, dunyodagi hech bir millat milliy tilisiz mavjud bo'la olmaydi.

UNESCO hisob-kitobiga ko'ra, dunyoda mavjud 7 mingga yaqin tilning yarmi XXI asrda o'zining oxirgi sohibidan ajralishi mumkin. Ba'zi farazlarga qaraganda asr oxiriga kelib mavjud tillarning 95 foizi o'lik tilga aylanadi. Har oyda dunyo miqyosida ikkitidan til o'layotganligi esa dahshatli hodisa! UNESCOning 2017-yil 15-iyundagi xabariga ko'ra o'lim yoqasida turgan 2,5 ming tildan 15 tasi Markaziy Osiyo xalqlariga to'g'ri keladi. Jumladan, O'zbekistondagi Markaziy Osiyo arablari tili, Buxoro va Samarcand yahudiyalarini tili, Markaziy Osiyo lo'lilarini (paryo) tili. Qolgan 2 tasi Qozog'iston va Qirg'izistonda (dungan, oyrot), 1 tasi Turkmanistonda (truxman), 9 tasi Tojikistonda (voxon, ishkomish, sanglich, roshor, shug'on, bartang, rushon, yazg'ulob, yag'nob).

Globallashuv asrida tillarning yashab qolishi ko'proq axborot kom-

Tilning xavfsizligini ta'minlash uchun ularning yozuvaliga, ko'p sonli so'zlashuvchilarga (100 mingdan ortiq), davlat tili maqomiga va axborot-kommunikatsiya, internet tizimida qo'llanish xususiyatiga hamda so'zlashuvchilarning muhabbatiga egaligidan tashqari, ziyolilarning tillarni saqlab qolish va rivojlantirish haqida qayg'urishlari va mutasaddilarning esa bir yoqadan bosh chiqarib tashkiliyo'l bilan kurashishlari juda ham zarur.

munkatsiyalari sohasida, internet tizimida qo'llanish darajasi bilan bog'liq. Qaysi til internet tili emas ekan, bu tillarning ro'parasida o'lim xavfi turaveradi.

Internet tili haqida so'z ketar ekan, o'zbek tili internet tili emasmi, degan savol tug'ilishi tabiiy. O'zbek tilida ham internet sahifalarida ma'lumotlar berilmoga, yozishmalar analoga oshirilmoga, tilimizda ish olib boradigan sayt va portallar, ijtimoiy tarmoqlar kundan kunga ko'payib borayotir. Zohiran, tilimiz internet va axborot-kommunikatsiya sohalari cheklanmagan darajada qo'llanayotgandek. Aslida ham shundaymi?

Internet kompyuter texnologiyalariga tayanadi. Kompyuter tilshunosligida "kompyuterning tilni tanishi" degan tushuncha bor. Agar kompyuter tilni "tanir" ekan, tilning kompyuter tili, internet tili ekanligi haqida so'z yuritish to'g'ri bo'ladi.

Kompyuter tilni "tanishi" uchun bu tilni "bilishi" zarur. Kompyuterning matndagi xatolarni tuzatishi, matnni qayta ishlashi, tarjima qilishi, tahrirlashi, matnni qayta tasniflashi, tartiblashi, biror tilda gapirishi, yozishi uning tilni tanishi asosida amalga oshiriladi. Umuman olganda, sun'iy intellektning 'ola ma'nodagi muloqot vositasiga aylanishi uning tilni "bilishi" va "tanishi" asosida sodir bo'ladi. Xuldas, XX asrning buyuk kashfiyoti bo'lgan kompyuter texnologiyalari til sohasi uchun katta vazifalarni vujudga keltirdi va tillarning taraqqiyoti hamda yashab qolishi uchun hal qiluvchi omilga aylanilgan goldi.

Tilning internet, kompyuter texnologiyalari tiliga aylanishi matematik tilshunoslik, uning davomi bo'lgan kompyuter tilshunosligining shakllanganligi va rivojlantirish darajasi bilan bog'liq.

Ayniqsa, sun'iy intellekt uchun tabiiy tillarni modellashtirish kompyuter lingvistikasining asosiy, pirovard vazifasi hisoblanadi.

Dunyo miqyosida sun'iy intellektlar yaratish asosida tabiiy tillarni matematik modellashtirish natijalarini

sun'iy intellektning faoliyat dasturini yaratishga asos bo'lib xizmat qiladi. Bu esa o'zbek tili misolida hali ochilmagan qo'riq.

Tilning xavfsizligini ta'minlash uchun ularning yozuvaliga, ko'p sonli so'zlashuvchilarga (100 mingdan ortiq), davlat tili maqomiga va axborot-kommunikatsiya, internet tizimida qo'llanish xususiyatiga hamda so'zlashuvchilarning muhabbatiga egaligidan tashqari, ziyolilarning tillarni saqlab qolish va rivojlantirish haqida qayg'urishlari va mutasaddilarning esa bir yoqadan bosh chiqarib tashkiliyo'l bilan kurashishlari juda ham zarur.

Amir Alisher Navoiy XV asrda yoq o'zbek tili maqomi uchun kurashgan edi. XX asrda esa ona tilini saqlash masalasi yana asosiy masalardan biri sifatida maydonga chiqdi. Bu borada amalga oshirilgan harakatlarning ayrimlari haqida eslab o'tdi. Kurashdan ko'zlangan maqsad qonun edi. Biz unga intiq edik, erishdik. Yilalar o'tgani sari zavqimiz so'ni, hissotlarimiz cho'g'i o'chdi. Chunki ko'ngil to'q — qonun bor-da. Ammo qonun bizdan ortda qoldi. Biz yillarga qo'shilib undan o'zib ketdik. O'ttizga borib o'tin bo'lgan qonun bilan bugun kimning nima ishi bor? Sinchi ziyolilar aytayotganidek, endi o'zbek tilini nafaqat ruscha so'z va ibroralardan, balki Ovropaning turli tillari tahididan, xususan, ingliz tili ta'siridan himoyalash vazifasi paydo bo'ldi. Agar sizda jinday ishtiboh bo'lsa, ishga yo'zorgaza borayotganingizda bekatmi, yo do'kon, tamaddixonayu-sartaroshxona, mehnomonxona yana turli ...xonalar peshtoqiga, ko'cha-mavzelarimizni bezab turgan reklama va e'lonlar taxtasiga birrov ko'z tashlasangiz, bas.

O'zbek tili mavjeyi uchun kurash tarixi ana shundan iborat, barcha milatparvarlar "shuytib" murod-maqsadiga yetibdi, deya ertakmonand yakun qilsak ham bo'lardi. Lekin o'zingiz bilgan o'sha gap: til ham tirik jon ekan, uning yashab qolishi erkin nafas olishi uchun kurash aslo to'xtamaydi. Bu zafarli yurishning so'nggi bekatni, rivoyatlaradagidek xotimasi yo'q. Nega shunday? Til, bir tasavvur qiling, minib yurgan mashinangizning oynasi. Siz yomg'ir-qorda, chang-g'uborda oynani bir lahzat tozalamang-chi! Rahmat, oyog'ingiz beixtiyor tormozga boradi. Yo'ldan chetlab ketganigizni sezmay qolasiz. Ona tilimiz ana shunday: betinim mehr-muhabbatga, qarov-ardoqqa muhtojo.

Munojot BAYMANOVA,  
Toshkent tumani  
XTB ona tili va adabiyot  
fani metodisti

# Ma'rifat imtiyoz

Respublikada 35–40 ming chog'li muallimlar o'quvchilarga tarix fanidan saboq berar ekan. Albatta, bir masala atrofida ularning hammasining boshini qovushtirish qiyin, biroq hammasi g'ildirakning kashf etilish tarixi va uning inson hayotidagi o'rnini yaxshi biladi.

Ibtidoiy odam g'o'la aylanib ketishini ko'zi bilan ko'rgan va unga taassub qilib, keyinchalik g'ildirakka asos bo'lgan qurilmani yaratgandir.

G'ildirakning esa texnika, umuman, mexanikada o'ynagan rolini ta'riflash qiyin. Uning kashf qilinishi bu sohada chinakam inqilob yasagan. U juda ko'plab mexanizmlarning asosini yoki eng muhim qismini tashkil qiladi.

Yana shunday fikrlar, gaplar borki, ular ham g'ildirak kabi muttasil aylanib turadi, turaveradi. Uzoqqa bormay, tarix saboqlarini esga olaylik. Avrelij Avgustin (356–430-yy.) "Biror xalqni uyg'otmoqchi bo'lsangiz, unga tarixini o'rgating", degan ekan. Mashhur ilohiyotshunos, faylasuf, xristian cherkoviga asos bo'lgan Gippon ibodatxonasining yepiskopi bo'lgan zot behudaga bu xulosaga kelmagan bo'lsa kerak. U haqiqatni bilishning yagona yo'li tarixni bilishdir, deb ta'kidlagan. Faylasuf inson har qanday masalada haqiqatni (ya'ni gap nimadaligini) bilishga intiladi, haqiqat esa tarixdadir, deb bilgan. Tarixni bilgan odam Haqqa yaqinlashadi — Avrelij Onhazrat(Blajenniy)ning eng katta xulosasi shunday.

Demak, tarixni o'rganishni taqiqlash haqiqatni bilishni, o'rganishni taqiqlash bilan barobar ekan. Haqiqatni bilmaslik — gumrohlik, ya'ni o'rqa qamalishdek gap. Gumroh odamga esa hech narsanining qizig'i yo'q, ayniqsa, u o'rada chiqish umidini butunlay uzgan holda bo'lsa. Chor bosqinchilar Chernyayev, Skobelev, Kaufman va boshqalarning Oq podshoga yozgan hisobotlarida "Biz o'zimizdan ancha yuksak salohiyatga ega bo'lgan xalq bilan yuzma-yuz bo'ldik. Bularni yengish qiyin. Faqat tili va tarixidan begona qilibgina maqsadga erishish mumkin", qabilida arzi-hol qilishlari ham bejiz emas ekan. Bu xulosalar tarixda juda ko'p xalqlarni bosib olgan mustamlakachilar siyosati misolida isbotlangan, uni ta'kidlashdan maqsad ba'zi loqaydashgan zehn-larga masalaning nechog'lik muhimligini yana bir marta ta'kidlab qo'yishdir.

Shunday qilib, g'ildirak aylanadi va yangilikka yo'li ochiladi. Yangilik shuki, mazkur o'quv yilidan boshlab, oly o'quv yurtlarining nomutaxassislik fakultetlarida faqat 1991-yildan keyingi tarix o'qitiladigan bo'ldi. Oldin esa bir yil davomida (ikki semestr) tarix fani o'qitilgan. To'tinchi bosqichda tarix va boshqa ijtimoiy fanlardan umumlashtirilib, davlat imthoni topshirilgan. Yangi tartib joriy qilingach, bu yog'i nima bo'lishini hozircha hech kim aytolmaydi.

Umumiyo o'rta ta'limga, umuman, maktabga e'tibor kuchaygandan kuchaygan sharoitda bu masalaga munosabat qandayligi bilan qiziqidik. Maktab dasturiga ham bu o'quv yilidan muhim yangilik sifatida "Tarbiya" darslari kiritildi. Bu faqat oldin amalda bo'lgan "Odobnama", "Vatan tuyg'usi", "Milliy g'oya", "Ma'naviyatoslari" darslari o'rniiga joriy qilindi. Ma'lumki, mamlakatimizda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiysi" (Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-qarori bilan tasdiqlangan) qabul qilingan va uning maqsadi – "yosh avlodda mustaqil hayot uchun zarur ijtimoiy ko'nikma va fazilatlarini yoshiga mos, bosqichma-bosqich shakkantirish asosida yuksak fazilatli, barkalom avlodni voyaga yetkazish" dan iborat. Shuhbasiz, uning tabalari o'sib kelayotgan kelajagimiz egalarini har tomonlama komil insonlar qilib tarbiyalashda, "ijtimoiy ko'nikma va fazi-

"Tarixni bilmaslik bir umr go'dak bo'lib qolishdir".

# emas, fidoyilikni talab qiladi

latlarni... shakllantirish"da boy tarixiy merosimizdan sa-marali foydalanishni ko'zda tutadi.

Shu o'quv yilda joriy qilingan tarbiya darslarida bu hol aks etgan, undan kutilayotgan natijalar ulkan, albatta, yangilik boyitilib boriladi, shu bilan birga hali bu borada bahs va izlanishlar davom etadi. Tarix fanining o'qitilishi bilan qiziqqanımızda esa oldindan tasavvur qilib bo'lmaydigan manzaralarga duch keldik. Albatta, bolalar qiyqirig'i muttasil yangrab turadigan, yuzlab katta-kichik odam kirib chiqadigan dargohni yonlab o'tib ketish boshqa, uning ostonasidan ichkariga qadam qo'yib, haqiqiy ahvol bilan tanishish boshqa ekan.

Maktabda tub islohotlar qizg'in ketayotgan, davlatimiz sohaga jiddiy e'tibor berayotgan sharoitda o'quv yurtlaridagi ahvol, ustozlarning kayfiyati, qadambaqadam amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan ja-moatchilik muttasil xabardor qilib borilishi shart, chunki bu dargohdan yiroq, manfaatdor bo'lmagan birov kishi yo'q. Sarf qilinayotgan mablag'lar ham xalqning puli! "Maktab ishi - umumxalq ishi", degan gap bekorga aytildi. Bu qoida ayni kunlarda, Prezidentimiz "Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi", degan g'oyani takrorlab turgan sharoitda yana ham baralla yangrashi, hayotda amal qilishi lozim. Negaki, maktabdagi islohotlarni faqat bir vazirlik yoki shu sohaga mutasaddi tashkilotlar bilangina emas, balki ota-onalar, umuman, ja-moatchilikning faol ishtiroti bilan muvaffaqiyatlari amalga oshirish mumkin.

Xullas, tarix fanining o'qitilishi masalasida turli doiralarla murojaat qilib va maktablar faoliyatini bilan tanishib, kutilmagan manzaralarga duch kelindi. Tafsilotlarga o'tishdan oldin bir holni qayd etishni xohladim. Turli nashrlarda maktab-maorif haqida maqolalarni o'qib qolamiz, muallimlar, mutasaddilar o'z ishlaridan axborot beradilar. Ammo ularda bugungi maktabning ob-havosini his etmaysiz, hozir bu dargohlarda ketayotgan qizg'in jarayonning harorati yo'q. Ular yo maktab dargohiga kirmsadan, telefon yoxud hisobotlardan olib tayyorlangan yoki shunchaki yozilgan bo'ladi, chamasi. Bu borada hamkasblarimizga, shu mavzuda qalam tebratayotganlarga jiddiy e'tiroz bildirishga haqlimiz. Ochig'i - maktabdagisi iqlimi sof, toza, musaffo qilmay turib, bu joyda oshkorlik, tanqidiy muhitni yaratmay turib, biror o'zgarishni amalga oshirish mumkin emas. Sohadagi ahvol esa ma'lum - qariyb chorak asrdan beri "islohot"lar davom etadi: goh darslik o'zgaridi, goh das-tur, hatto yuqori sinflar qisqartirib tashlandi ham. Oliy ma'lumotli pedagog, o'n yil maktabdarla dars bergen ustoz sifatida aytamanki, bu sohaning oltin qoidalari dan biri - ta'lim-tarbiya barqarorlikni konservatorlikni yoqtiradi. Darslikning o'zi emas, hatto uning muqovasi rangi o'zgartirilsa ham salbiy effekt beradi: uni qabul qilish uchun quyvut sarflanadi, vaqt yo'qotiladi. Yirik ru-hushnoslar, pedagoglar shunday xulosalarga kelishgan. Bugungi maktabdagisi ahvol-chi?!

Telefon orqali so'zlashib yoki tashrif buyurib, bir umumiyl holga guvoh bo'ldikki, bu manzara bir qarashda taajjubli tuyuladi. Sen birovga qo'lingni uzatsangda, u tomon "Yo'q, men .." deb tursa, g'alati bo'larkan: kimga murojaat qilinsa yoki biror savolga javob olish kerak bo'lsa, maorifchilar iloji boricha tutqich bermaslikka yoki "qo'lga ilinadigan" biror gap aytmaslikka harakat qilishadi. Ilojsiz qo'iga tushib qolganlar esa qo'rquv va sarosima ichida umumiyl gaplarni qandalar nari o'tishmaydi. Hatto "Tarix faniga o'n yil, besh yil, ikki yil oldin qancha soat ajratilgandi?" singari jo'n savollarga yigirma yil ilmiy bo'lim mudiri bo'lib ishlagan "hurmatli pedagoglar" ham aniq javob bera olmaydi yoki haqiqiy ahvolni yashiradi. Go'yo shundan manfaatdordek, chalkashtirishadi, yolg'on axborot berishadi. Yana bir hol - juda o'tinib, o'z ism-familialiyanini atamaslikni so'rashadi (ularni ranjitmaslik uchun o'shanday qiliyapmiz). Umuman, butun xalq e'tiboridagi bu soha yopiq maydonga aylanganga o'xshaydi ("o'raga sichqon tushdi, guldurgup") va shu orqali ular o'z mas'uliyatlarini bo'yinlari dan soqit qilishmoqchi va shu yo'l bilan javobgarlikdan qutulib qolmoqchi bo'lishadi go'yo.

Bunday holat bor gap. Uni qarorlar, tadbirlar, do-q-po'pisa bilan o'nglab bo'lmaydi. Yagona yo'li - "hurmatli pedagog"lar qalbidagi o'chib qolgan chiroqni yoqish, ya'ni pedagoglarning o'ziga pedagoglarcha munosabat bildirish. Har bir ustoz mas'uliyatni o'zi his qilmas ekan, qalbidagi mudrak qolgan tuyg'ular - vatan-parvarlik, insonparvarlik, kelajak oldidagi mas'uliyat, odamiylik singari burchdorlik hissi, eng asosiyosi - go'zalilikni qadrash malakasi uyg'onmas ekan, uning maoshini oshirgan yoki mukofotlagan bilan hech narsa o'zgarmay qolaveradi (bir hol ko'zga tashlanyapti: past ovozda aytilayotgan takliflarda ham darsliklar sifati yoki dars soatlarining kamayib ketishi emas, faqat maoshni oshirish yoki imtiyozlarni ko'paytirish haqida gap bo'lmoida. Holbuki, qadimgi zamonalarda ustozning ramzi - sham bo'igan, u yonadi wa davralarni yorug' qiladi. Ziyo ularish fidoyilikni talab qiladi, imtiyozini emas!). Shunga o'xshash noxush holatlardan qutulishning yo'li - ustozlarda o'zi tanlagan kasbning olijanobligiga ishchoni mustahkamlash, mehrni qaytarish, jamiyatda hurmatini joyiga qo'yishdir. Eng asosiyisi - tadbirbozlik va turli qayta tayyorlashlarga chek qo'yib, ularning o'ziga o'zi bilan "gaplashib olishi"ga imkon yaratish. Ustozlar keraksiz tadbirlardan, seminarlar-u, qo'shimcha topshirilardan juda charchagan.

Bu masalaning ma'naviy tomoni. Xususiy jihatlarga qaytadigan bo'isak, fanlar, jumladan, tarixdan beriladigan saboqlarning qanchalik samara berishi, shubhasiz, muallimning tayyorgarligiga bog'liq. Darslik va dasturlarning muttasil o'zgarib turishi o'qituvchilarda ma'lum qiyinchiliklari tug'dirgani bor gap. Shunday sharoit ularning o'z ustida ishslashlari, davr talabi bilan hamqadam bo'lishlari muammolarni yuzaga keltirdi. Deylik, maktab va matbuot masalasi qanchalik jiddiy tus olganiga hamma guvoh. Bu holga davlatimiz rahbari aniq tashxis qo'ydi: "Afusuki, biz keyingi yillarda "majburiy obuna" bahomasida ixtiyoriy obunani ham yo'q qildik... Shunday ayanchli holga keldikki, hatto ayrim rahbarlar gazeta o'qimasligi bilan maqtanadigan bo'lib qoldi".

"Majburiy obuna" degan gap ko'p aylandi-yu, aslida u nima, degan savol ochiq qoldi. Mabodo, ustozga maoshining yarmi miqdorida obuna bo'lish majbur qilingan bo'lsa, bu holni "majburlash" deb baholasa bo'lardi. Aslida esa "obuna mexanizmi" bo'yicha "yuqori" dan tasiqlangan nashrlarga yozilish majbur qilingan, obuna bahomasida maoshdan pul ushlash qolingga va "tila tog'ora" larda dunyoga kelgan nashrlarga pul to'lab berilavergan. Obunachi qaysi gazeta yoki jurnalga obuna bo'lganini o'zi ham bilmaydi. Gohida masxaraomuz hollar ham yuzaga kelgani bor gap. Bir maktabda tojikcha, qozoqcha gazetalar uyulib yotardi. Holbuki, bu joylarda shu tillarda so'zlashadigan odamlar yo'q. Sababini so'rasam: "Tepa" dan aytishgan" deyishid. O'zim ishlaydigan gazetaga bir dona obuna bo'lismi so'raganimda ham "Tepa" hal qiladi", deb rad etishgandi. Bi "tepa" - viloyat boshqarmasining boshlig'i obunaga yig'ilgan pullarni (bir qismini bo'lsa kerak) poytaxtdagi "akaxon"ning to'yiga "to'yon" qilib yuborgan ekan. Obuna bilan bog'liq noxush voqealar ko'ngilni xira qiladi, bun-day hollar endi takrorlanmasligini istardik.

Shunday qilib, obuna kampaniyasi haqli e'tirozlariga sabab bo'lgan va bu o'rinci edi. Oqibatda, maktabga qanday vaqili nashr keladi, uning taqdiri nima bo'ladi - kutubxonaga ketadimi, qassobgami, bu hech kimni qiziqtirmagan va hech kim gazeta-jurnal varaqlab ko'rishni xayoliga ham keltirmagan. Aksincha, cho'ntagidan sezilarli mablag' urib olingani uchun bu "matoh"ni yomon ko'rib qolgandir ham. Natijasi esa matbuotning nu-fuziga putur yetdi, o'qituvchilar butunlay gazeta-jurnal o'qimay qo'ydi. Maktablardan birida o'qituvchiga o'zim bilan obib borgan ikkita gazetani tuhfa qildim.

— Ma'naviyat xonasiga qo'ying, o'zingiz o'qing, hamkasblaringiz ham o'qiydi, — dedim.

— Ikkalasi ham bir xil-ku, — dedi ajablanib ustoz, katta-katta qilib yozilgan "HURRIYAT" so'zini ko'rsatib. Bu umrida gazeta ko'rnagan odamning gapi edi.

— Gazetaning nomi bu, ichi har safar yangi bo'ladi, — dedim Suqrot shogirdlariga gap uqtirgandek hijjalab. Qo'lidagi gazetani ushlab angrayib turgan, qariyb yirma yillik "pedstaj"ga ega shu ustozning biron marta gazeta oshib o'qiganiga ishonib bo'lmaydi.

Baribir, ustozlarning mulohazalarini tinglash maroqli. Ular aytadiki, o'quvchilarda tarix fanini o'qish-o'rganishga qiziqish susayib ketgan. Bu holning sabablari ko'p. Jumladan, oliy o'quv yurtlariga kirish imtiyolarida cheklowlar bo'ldi. Bundan tashqari, darslar zerikali, qo'shimcha materiellar yo'q hisobi. Masalan, Janna d' Ark haqida gapirish lozim bo'lsa, suratlar, kartalar, hatto videomateriallar oshib-toshib yotib. Dukchi eshon haqida gap ketganda esa chonopcha o'ranib olgan ojiz cholning suratidun boshqa namoyish qilinadigan nar-sa yo'q. "Mana, ingliz tili qanday qiziqarli o'tiladi. Bu naqa bo'lgach, bola zerikmaydi-da". Demak, rassomlar, kinochilar ham maktabdan ancha qarzdar ekan. Fanning o'zida hali yagona to'xtamga kelinmagan o'rinnar ham ko'p, hatto tarixiy shaxslarning ismlarini yozishda bir xillikka erishilmagan. Ko'p voqealarga hali yetarlicha ilmiy, siyosiy baho berilmagan o'rinnar bor. Yoki sinflar bo'yicha davrlar taqsimotida ham tenglik yo'q. Yettingchi sindfa ming yildan ziyod davr tarixi o'rganilisa, ba'zi sinflarda 70-80 yillik tarixni o'rganish ko'zda tutilgan. Umuman, darsliklarning tuzilishida sho'ro davridagi qoliplar saqlanib qolgan ("Ikki haftada darslik yozgan paytlar bo'ldi", deydi suhabatdoshlardan biri). Endi tariximizda yorqin iz qoldirgan davrlar batatsil va har tomonlame o'rganilishi lozim emasmi?

E'tibor beryapsizmi, g'ildirak joyida aylanib yotgan-dek taassurot uyg'otmoqda. Demak, predmetning o'zini o'rganish va o'rgatishda muammolar bartaraf etilmagan. Matbuota tarix fanini xronologik tartibda emas, mavzular bo'yicha (shaharlar, hunarmandchilik, buyuk shaxslar, din, madaniyat tarixi singari) o'rganish yuzasidan fikr bildirilgandi ("Hurriyat", 2020-yil, 15-yanvar, "Ma'rifa", 2020-yil, 4-mart), unga hech qanday munosabat bildirilmadi. Mayli, o'quv dasturini o'zgartirish, darsliklarni yangilash qiyindir, ammo shu mavzularda qo'shimcha adapbiy sifatida kitoblar, risolalar yaratish mumkin-ku. Bu boradagi izlanishlar ko'zga chalinishadi. Xuddi shunday yumushlarga bosh-qosh bo'lishi kerak bo'lgan Respublika ta'lim markazining faoliyati esa hozirgacha tushunarsiz bo'lib kelmoqda. Markaz muallifning "Hazrat Sohibqiron" va "Sohibqiron abadiyi" kitoblarini "O'rta maktab o'quvchilari uchun foydalanishga tavsiya qilinmasin" deb xulosa bergan (2018-yil, 26-sentabrda qarori). Ko'rayapmizki, g'ildirak teskarri aylangan. Uzoq tortishuvlar, matbuot chiqishlari dan keyin yana o'zini inkor qilib, "qo'shimcha adaptib yozishda foydalanish" qiladi. Yana qo'shimcha adaptib yozishda foydalanishga qilinmasin" deb xulosa berdi (2018-yil, 29-noyabr). Demak, o'shan-dar markaz yo'nalishini to'g'ri belgilay olmagandi, hozir qanchalik o'zgardi - buni tahlillar ko'rsatadi.

Xullas, tarix fanini o'qitish, umuman maktab hayoti singari, ana shunday muammolar girdobida yashamoqda. Vaqt esa kutib turmaydi. Zamoning o'zi jiddiy tashvishlari ko'ndalang qo'ymoqda. Prezidentimiz ta'kidlagani-dek, "Hozirgi paytda dunyo migyosida raqobat keskin tus olib borayotganini hammamiz ko'rib turibmiz. Bu shiddati raqobatga faqat zamonaviy ilm-fan va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish orqali munosib javob bera olamiz". Albatta, yangiliklarni amaliyotga kiritish kadrler salohiyatiga bog'liq. Ulug'vor vazifalarni esa qalbida millat g'ururi va iftixori jo'sh urgan avlodgina uddalay oladi. Zero, o'tmish sabog'i, ajoddolr asorati eng yorqin ibratdir. Kimki o'z tarixini jordan sevsra, uning barcha sirlarini puxta o'rgansa, o'zida olamshumul yushmanlarga kuch topa oladi. Aksincha, qadimgi yunon faylasufi Sitseron ta'biri bilan aytganda, "Tarixni bilmaslik bir umr go'dak bo'lib qolishdir". G'ildirakning mudom oldingga aylanishi hayotiy zarurat hisoblanadi.

Hakim SATTORIY,  
Respublika Ma'naviyat-ma'rifikat  
markazi mas'ul xodimi,  
yozuvchi

# Xushkayfiyatli bola — “a’lochi” bola

Mutaxassislarining aytishicha, inson bosh miyasi atrofdagi minglab signallarni qabul qiladi, bu ma'lumotlarning faqat bir foizigina bildirilayotgan fikrlar bayonida qayta aks etadi. Tadqiqotchi Andrea Mechelli o’z izlanishlarda ushbu aqly faoliyat 7 yoshdan xorijiy tilni o’rganayotgan o’quvchida yaxshi rivojlanishini isbotlagan. Qolaversa, bu uning intellekti va dunyoqarashi o’sishiga yordam beradi.

Bola ko’proq xushkayfiyatda yursa, o’yinga to’yinsa, qiziqarli taassurotlarga boy sayrlarga chiqsas, “a’lochilik”ka poydevor qo’yiladi. Shu bois ota-onalar kichkintoylarni aqly mehnatga jalg qilishdan avval idrok, diqqat va tafakkuri qanday rivojlanganini sinab ko’rishi maqsadga muvofiq. Masalan, unga uch xil rasm ko’rsatib, ketma-ketlikni tartib bilan aytishimi so’rang: 1. Bola ko’chat o’tqazyapti. 2. Bola ko’chat olib kelyapti. 3. Bola ko’chat sug’oryapti (to’g’ri javob: 2, 1, 3). Yoki farzandingizga o’nta buyum nomini anglatuvchi so’z o’qib bering va eshitganini takrorlashini talab qiling. Beshtadan kam so’z aytgan bolada eslab qolish qobiliyati sust.

Bundan tashqari, “To’xtamay qidir” o’yinida o’g’il-qizlarning diqqat, sezgi va xotirasini rivojlantiriladi. 10-15 daqiqa mobaynida xonadagi predmetlarni e’tibor bilan ko’zdan kechirish imkonи beriladi. Keyin esa ularni o’lcham, rang, shakl jihatdan bir xil ketma-ketlikda sanab berishi kerak bo’ladi. Bu jarayonda ular ongiga murakkablik va mavhumlikni singdirish foyda kelitmaydi.

Ilimy-ommabop manbalarda qayd etilishicha, yoqimli kuy bolaning bilimli bo’lishiga, me’da faoliyati yaxshilanishiga, fortepiano va skripkada ijro etilgan kuy kichkintoyning o’sish jarayoniga ijobjiy ta’sir ko’rsatadi. Jahon olimlarining tadqiqotlari natijasi shuni ko’rsatgani, klassik mu-

siqalar oshqozon yarasi tezroq bitishiga yordam berar ekan.

Bir yo’la bir nechta tilni o’rganishga qodir bo’lgan va bunga erishgan yoshlarga ta’lim berish alohida e’tibor va mas’uliyat talab etadigan vazifa. Xorijiy tilni o’rganishga bo’lgan ishtiyoq va faoliyk o’z ona tilimizga e’tiborning susayishiga olib kelmasligi kerak. Buning uchun bolaga ta’lim-tarbiya berishning ilk bosqichida o’z tilidagi ovozli matnlarni tinglab, o’yinchog’i yoki ko’cha-ko’yda ko’rgan buyum va jonzotlar haqidagi tasavvurga ega bo’lgandan so’ng ularning nomi rus yoki ingliz tilida qofiyali she’r-u qo’shiqlar orqali eshittiriladi. Kichkintoyga dastlab muloqot qilish jarayonini o’rgatish kifoya. Avvalo, uning kuzatuvchanligi, odatiy salomlashish odobini bilishiga ishonch hosil qilgach, “salom (hello), xayrli tong (good morning), xayrli kun (good afternoon) va xayrli kech (good evening)” so’zlarini ashula qilib kuylashga chaylaymiz. Kichik yoshdagagi bolalarga so’z va matnlarni yod olishni uqtirish emas, tilga olinayotgan predmetni rasmlar orqali izohlashni va ko’rgazmali qurollar yordamida harakatlari tushunchalarni o’rgatish yeterli.

Sojida MUHAMMADIYEVA,  
Toshkent shahridagi  
204-maktab o’qituvchisi

## Tajriba

## “Piyola”dagi harakat

Boshlang’ich sinf o’quvchilariga mavzu qiziqarli, noan’anaviy o’yinlar bilan tushuntirilsa, maqsadga muvofiq bo’ladi. Ayrim paytlari sinfdagi 25 o’quvchining barchasini birdek baholashning imkonи bo’lmaydi. Shunda lirk chekinish — “Piyola” o’yin usulidan foydalanaman. Ushbu o’yin orqali o’quvchilar jamoaga tez kirishadi, kayfiyati ko’tariladi, charchog’i chiqadi.

Mashg’ulotni o’tkazishdan avval sinf o’quvchilar uch guruhga bo’lib olinadi va sardorlar saylanadi. Doskaga guruh sardorlari taklif etiladi, ularning qo’liga texnologiya darsida yas-algan rangli karton piyola tutqaziladi. Sardorlar bir-biriga piyola beraturib, o’tilgan mavzu yuzasidan 3 daqiqa ichida qo’shimcha ma’lumotlarni aytish orqali savol-javob o’tkazadilar:

— piyola uzatayotgan o’quvchi yangi usul topolmasa yoki harakat takrirlansa, o’yindan chiqadi va g’olib guruh aniqlanadi.

Savollarga javob topish uchun sardor o’z guruhidagi tengoshlariga yuzlanadi. Umumiyl xulosa o’yin shartiga ko’ra bir daqiqa ichida e’lon qilinadi. Piyola uzatishda ham ba’zi qoidalarni mavjud. Masalan, 2-sinf “O’qish” darsligidagi “Amir Temur bobomiz” mavzusida birinchi guruh sardori(qo’li ko’ksida piyolani uzatib) “Amir Temur

— piyola navbat bilan har xil usulda uzatiladi;

— o’quvchi har xil ko’rinishni ko’rsata olishi kerak;

— piyola uzatayotgan o’quvchi yangi usul topolmasa yoki harakat takrirlansa, o’yindan chiqadi va g’olib guruh aniqlanadi.

Savollarga javob topish uchun sardor o’z guruhidagi tengoshlariga yuzlanadi. Muhimi, har bir o’quvchi o’z guruhni g’olib bo’lishi uchun tirishqoqlik bilan intiladi, tortinchoq o’quvchilar ham mashg’ulotda faol bo’lishadi.

Aziza RAHIMOVA,  
Yashnobod tumanidagi  
198-maktabning boshlang’ich  
sinf o’qituvchisi

## Sinab ko’ring

2-sinf “Matematika” darsligida 100 ichida qo’shish va ayirishga doir misol va masalalar berilgan. Bu topshiriqlar diqqatni jamlash va rivojlantirish, bolalarning aqly faoliyatga tezroq kirishishlari va ko’nikma hosil qilishiga yordam beradi.

## 100 ichida qo’shish va ayirishga doir misol va masalalarni yechish

Maktab dasturi talablariga binoan 100 ichida qo’shish va ayirishni o’rganishda o’quvchilar qo’shish va ayirishning hamma hollari uchun usullarni o’rganibgina qolmay, balki nazarma bilimlarning muayyan kompleksini ham o’rganishlari kerak. Masalan, 1-sinfda son yig’indisiga qo’shish va yig’indini songa qo’shish, sonni yig’indidan ayirish va yig’indini yig’indiga qo’shish, yig’indidan yig’indini ayirish xossalari o’rganildi.

Kossalarni va tegishli hisoblash usullarini olib berishdan avval tayyorgarlik ishini bajarish kerak. Buning natijasida o’quvchilar sonlar yig’indisi va sonlar ayirmasi kabi matematik ifodalarni o’zlashtiradilar, tengliklari bilan tanishishadi. 1 va 2 amallli ifodalarni qavslar yordamida yozishni o’rganishadi, ikki xonali sonlarni ularning xona qo’shiluvchilari yig’indisiga almashitirish bilan tanishadilar.

“Yig’indi” matematik ifodasi bilan o’quvchilar birinchi o’nlikni o’rganayotganlarida, so’ngra “ayirma” bilan tanishadilar.

Masalan  $8 + 1 = 9$  misolini yechishdan so’ng o’qituvchi yig’indini aytishni taklif qiladi. Bolalar 9 sonini aytadilar, so’ng  $8 + 1$  ifodaning yig’indi deb atalishini tushuntiradi. Ikkita qo’shishni, qo’shiluvchini yig’indi bilan almashtirish mumkin.

Qo’shish va ayirishni tushuntirishda quyidagicha ish olib boriladi: avval 0 bilan tugaydigan ikki xonali sonlar, keyin sonning yig’indisini qo’shish va sonni yig’indidan ayirish usulni o’rganiladi.

$50 + 10 =$  (beshta o’nlik qo’shuv bir o’nlik, teng olti o’nlik)  
 $50 + 10 = 60$ .

$90 - 60 =$  (toqqizta o’nlik ayiruv oltita o’nlik, teng uchta o’nlik)  $90 - 60 = 30$ .

5	0	5 + 0	13 + 20
13	20	41 + 41	2-qo’shiluvchi yig’indi
41	41	a + b	15 - 12
a	b	A + b	20 - 0
20	0	tug'ilgan?	13 - 7
13	7	deb savol beradi.	A - b
a	b	Shu tarzda o’yin davom etib, o’tilgan mavzu yuzasidan savollarga javoblar berib boriladi.	Kamayuvchi ayriluvchi ayirma
15	12	Sardorlar o’zlarini uchun turli harakatni o’ylab topishi, piyolani bir chertib uzatishi yoki teskari tutib turishi kabi holatlar o’quvchini pozitivlik va moslashuvchanlikka o’rgatadi.	Har bir yozuv og’zaki tushuntiriladi. Dastlabki vaqtarda o’qituvchilar yechish usullarini tushuntirayotganlarida tegishli terminlardan foydalansh, ya’ni sonni o’z terminlari bilan atashlari juda muhimdir(birinchi qo’shiluvchi, ikkinchi qo’shiluvchi).
20	0	Dars yakunida faol o’quvchilarning barchasi baholaniadi. Muhimi, har bir o’quvchi o’z guruhi g’olib bo’lishi uchun tirishqoqlik bilan intiladi, tortinchoq o’quvchilar ham mashg’ulotda faol bo’lishadi.	2-sinfda x harfi o’zgaruvchini belgilaydigan simvol sifatidagi ma’nosini olib berishga tayyorgarlik ishi 2-sinfda o’quv yilining boshida qo’shish va ayirish amallarini takrorlash munosabati bilan o’tkaziladi. Harflarning kiritilishi bilan bir vaqtida tayyorgarlik davrida, bolalar yangi terminlar: “matematik ifoda” va “matematik ifodaning qiymati” bilan ta’rifisini tanishadilar. Bu davorda yig’indi va qoldiqni topishga doir bir xil mazmundagi sodda arifmetik masalalarini yechish bo’yicha ish olib boriladi.
13	7	Amir Temur nechanchi yil, qayerda tug’ilgan?, deb savol beradi.	Difuzo YUSUPOVA, Bo’stonliq tumanidagi 36-maktabning boshlang’ich sinf o’qituvchisi
a	b	Shu tarzda o’yin davom etib, o’tilgan mavzu yuzasidan savollarga javoblar berib boriladi.	

Sardorlar o’zlarini uchun turli harakatni o’ylab topishi, piyolani bir chertib uzatishi yoki teskari tutib turishi kabi holatlar o’quvchini pozitivlik va moslashuvchanlikka o’rgatadi. Dars yakunida faol o’quvchilarning barchasi baholaniadi. Muhimi, har bir o’quvchi o’z guruhi g’olib bo’lishi uchun tirishqoqlik bilan intiladi, tortinchoq o’quvchilar ham mashg’ulotda faol bo’lishadi.

Harflarning kiritilishi bilan bir vaqtida tayyorgarlik davrida, bolalar yangi terminlar: “matematik ifoda” va “matematik ifodaning qiymati” bilan ta’rifisini tanishadilar. Bu davorda yig’indi va qoldiqni topishga doir bir xil mazmundagi sodda arifmetik masalalarini yechish bo’yicha ish olib boriladi.

Nuqtayi nazar

# Konspektning qani?

## O'quvchi hikoyasi:

Bir kuni uyimizga mehmon kelib qoldi. Ota-onam toki mehmonlarni kuzatib, ular ketgach, uy ishlarini birgalikda saranjom qilmaguncha dars stolimga o'tiroldim. Vaqt esa allamahal bo'lgan edi. Kundaligimni oldim, ertangi bo'ladigan darslarga qarab kapalagim uchib ketdi! Axir, jadvalda biologiya, tarix turibdi? Nima qilibdi, demoqchimisiz? Ikki fandan ham konspekt yozishim kerak, yanayam anavi biologiya bo'larning mavzu bo'yicha kitobda berilgan rasminiyam chizishim kerak. Ustozning aytilishcha, haliyam qo'shimcha masalalar bermay, bizga yon bosarkan. Tarix-chi? Tarix ustoz katak qoldirilmagan holda kamida uch bet yozilgan konspekt talab qiladi. Maktabda ona tili va matematikadan uy vazifalarini bajarib olganim yaxshi bo'lgan ekan. Tarixdan tez-tez yoza boshladim, charchagan ekanman, ko'zlarim yumilib ketay deyapti. Bir amallab, katta-katta yozuv bilan belgilangan me'yorni bajardim. Qo'lim tolди, ko'p vaqtim yozishga ketib qoldi. Endi o'qishim kerak... Shoshma, demim o'zimga, konspekt yozdim, balki so'ramas mendan. Har doim konspekt yozmaganlarni jazolaydi-ku, deya tinchlanib oldim-da, biologiyani ochdim. Buncha ko'-o'p, uchta rasmni ham bor ekan. Soat tungi 01 ni ko'rsatayti. Onam necha martalab kelib ketdi: "Bo'ldi, uxla, ertaga darsda mudrab qolasan". Yotmasam bo'lmaydi endi, chunki onajonim ham mendan xavotirlanib uxlolmayapti. Saharda turib o'qib olaman. Konspektini to biologiya boshlanguncha yozib olarman...

Aksiga olib, ona tili darsida daftarimni oldirib qo'ydim. O'zimdan bo'ldi: "kechadan qolgan" uy ishi - konspekt yozib o'tirgandim, uztoz qulq solmayapsan deb kitobimni ham, daftarmimi ham olib qo'ydi, dars tugagach urz so'rabb, qaytarib oldim.

Tarixdan o'qimay kelganimni bildirmay deb shuncha urindim, bo'lmadi. Mustahkamlashda o'rtaga savol tashlab, javobni mendan so'rasa bo'ladimi? "Javob bersang-chi, daftaringga yozgansan-ku?!" Eh, ustozjon, konspektini yozdim, lekin o'qimadim-da. Ichimda ming bir bahonalar to'qila boshladi. Hech biri tilimga ko'chmay, rosa qiyaldim. "Konspekt yozibsani, lekin o'qimabsan, demak, dars qilmabsan?" Ustozim naqadar haq! Dars qilmadim men, kitob ko'chirdim!

Biologiya boshlandi. O'qib kelgaman. Daftar so'rabb qolmasidan doskaga chiqib olay deb birinchilardan bo'lib qo'l ko'tardim. Savollarga ham javob berdim. O'qituvchimiz xursandi: "Juda yaxshi o'rganib kelibsani! Bahong besh!" Xotirjam bo'lib joyimga o'tirayotgandim, ustozim: "Daftaringni olib kel-chi?" desa bo'ladimi? Ustimga bir chelak suv quyildi! Boshimni quy

solib olib bordim. "KONSPEKTING QANI?" Yig'lab yuboray dedim...

\*\*\*

O'quvchiligidizda, ayniqsa, talabaligidizda ba'zi darslardan ustozlarning muttasil konspekt yozdirgani, yozish amalidan bezdirib qo'ygani uchummi, haligacha uy vazifasi tariqasida beriladigan kitobdagagi mavzuni to'lig'icha ko'chirishni yoki bir necha betlab daftarga "yozdingmi yozding" qabilida qayd etiladigan konspektini hech yoqlagim kelmaydi. Siz ham o'quvchiligidizda darslikning o'zida amaliy, yozma topshiriplar berilmaydigan fanlardan uzundan uzoq konspekt yozganmisiz? Yozmasan-giz bahongizni tushirib yoki "darsini qilmayapti, e'tibor qaratmayapsizlar" deya ota-onangizga e'tiroz bilan chiqqan ustozingizdan ranjigansizmi? Yo ularni haq deb bilgansizmi?

\*\*\*

Fanlarni yozma topshiriplarsiz o'zlashtirish davriyiligi vaqtinchalik. Bilimni va xotirani charxlash uchun ham mustahkamllovchi yozma topshiriplar zarur. Ammo...

"O'quvchi kitob o'qimayapti, hech bo'limasa, kitobdan daftarga mavzularni ko'chirsa, ko'rib turgan ko'z orqali ham xotirasiga ma'lumotlar joylashadi" yoki "kelgan tekshiruvchiga konspekt asos" degan maqsadda konspekt yozdiradigan hamkasblar ham yo'q emas. Shunchaki kitobdan ko'chirish orqali daftara qoralansa, ko'z ham nimani ko'rayotganiga diqqat qilmasa, hammasi bekor. Undan ko'ra, kitobni ikki-uch qayta tushunib o'qimoq zarur. Yozma topshiriplar, jumladan, konspekt yozish maqsadli bo'lsa, ta'lim sifatiga kutilgan hissasini qo'sha oladi. Shu o'rinda konspekt atamasi va tushunchasi, maqsadi va vazifasi haqida bir og'iz so'z:

Konspekt (lot. *conspectus* — ko'rinish) — kitob, maqola, leksiya va boshqalarning qisqa yozma bayoni. Konspekt reja, qisqa bayon qilinigan asosiy nizom, fakt va misollardan iborat.

Konspektda quyidagilarni aks ettirish kerak:

## Konspekt turlari.

### Rejali


Oldindan tayyorlangan reja yordamida tuziladi: uning har bir bandiga konspektning tegishli qismi mos keladi.

### Matnga doir

Ko'pincha mantiqiy o'tishlar bilan bog'langan ko'chirmalardan tashkil topadi.

### Erkin

Ko'chirmalar, ba'zan tezislardan aralashmasidan iborat bo'ladi.



## Xronologik

Hodisalarning o'zini ko'rsatish asosida ularning xronologik izchillagini aks ettiradi.

## Tahliliy

Ko'pincha bir necha manbadan foydalanan aniq mavzuni olib beradi.

## Tematik

Matning butun mazmunini aks etirmaydi, faqat muayyan, aniq mavzubo'yicha, qo'yilgan savolga javob beradi.

Matnni o'qib chiqqandan keyin konspekt qilish usullari. **1-variant.**

yalar muallifiga aylanishi kabi kompetensiyalarni namoyon eta olsin. Chunki qolipli darslar tafakkurni chegaralaydi. O'quvchi ehtiyojini hisobga olmaslik esa uning qimmatli vaqtini o'g'irlaydi, xolos.

Masalan, mantiqiy savollar, jadvallar usulida o'quvchi bilimini mustahkamlashga qaratilgan yozma uygava vazifalar ko'zlangan maqsadga xizmat qiladi. O'qiyotgan mavzusining bosh g'oyasini aniqlaydi, g'oyaning to'lig'icha ochilishiga xizmat qiluvchi kichik detallar nimalar ekanligini bil-

Asosiy so'zlar	Mohiyat, asosiy fikr	Asosiy fikrning olib berilishi	Xulosa, savollar, shaxsiy munosabat

## 2-variant.

Asosiy masalalar	Masalalarning olib berilishi

Konspektda so'zlarning ko'p bo'lishi, haddan ortiq ko'chirma olish, matnning mantig'iga putur yetkazib, uning uslubiy xususiyatini saqlab qolishga urinishdan o'zingizni tiying. (Manba: <http://www.dissertant.uz/>)

Har qanday yozma topshiriplarning, eng birinchi navbatda, samarali natijasi muhim. O'qituvchi mahorati ham shunda. Dars rejasining mukammal tuzilishi qo'yilajak poydevorga

- Gap nima haqida;
- Nima ta'kidlanyapti;
- Qanday dalillanyapti?

kafolat beradi. O'quvchi ehtiyojidan kelib chiqib topshiriplar tayyorlash, haqiqatda, yangi bilimni amaliyotda qo'llay olib ko'nikmasiga zamin bo'ladi. Demak, yozma vazifalar pedagogik innovatsion texnologiyalar asosida shakllantirilishi kerak. Natijasi o'laroq, o'quvchi ma'lumotlarni xotirada saqlashi, o'rganganlarini so'zlay olishi, amaliyotda isbotlashi, himoya qilishi, ijtimoiy hayot bilan bog'lashi, axborotlarni qayta ishlash olishi, g'o-

ish uchun izlanadi, kalit so'zlarni to'padi va o'z mehnatidan mammun holda daftara qayd etadi. Ba'zan o'quvchi istagi va o'zlashtirish darajasini hisobga olib, individual topshiriplar berib borish ham yaxshi samara baradi.

Deylik, o'quvchi aniq fanlarga mehr qo'ygan, tanlagan yo'nalishidagi fanlar ham matematika, informatika. Hayot matematika fanidan iborat emasligini o'quvchiga mohirona anglatish ham san'at. Ya'ni, o'quvchi psixologiyasini o'rgangan holda (bunda, ota-ona hamkorligi juda zarur! Chunki o'qituvchi mehnatining bekor ketishiga sababchi ham, afsuski, o'zimiz! Bee'tiborilik, boshqa fanlarni ikkinchi darajada ko'rish!) fanlararo uzyviylikni ta'minlovchi mantiqiy topshiriplar ta'siri niyoyatda kuchli! Shaxsnai kamol topirishda Shaxsnai o'rganishimiz ta'lim berishdagi to'g'ri yo'ning boshlanishidir.

Aziz ustozlarim! Bugun o'quvchi darslarimizdan qoniqyaptimi? Bir xillikdan qutula oldikmi? Javobi o'zimizda bo'lsa, muhim shu.

# “Quyosh bolalari”ga hunar o’rgatgan qiz

“17 yoshli qiz o’z joniga qasd qildi”.

“18 yoshli qiz bedarak yo’qoldi”.

“Molxonada 2 nafar qiz osilgan holda topildi”. Bu kabi xabarlar bugun tez-tez qulog’imizga chalinyapti. Yaqinda xorazimlik homilador kelin ham oilaviy nizolar qurbaniga aylandi. Boshqasi nomusi buzilgach, o’z joniga qasd qilgan. Jamiyatda xotin-qizlarning o’ni mustahkamlanmas ekan bu kabi mudhish ko’ngilsizliklar sodir bo’laveradi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylangan 150 deputatning 48 nafari yoki 32 foizi xotin-qizlar. Senatda esa bu ko’rsatkich qariyb 25 foizga yetdi, 1294 nafar xotin-qiz tadbirdorlik foliyatini boshladi. Aslida, ayollarga nisbatan bo’lgan munosabat jamiyatning rivojlanish darajasini belgilaydi. Asta-sekin jamiyatimizda qiz bolaning ta’lim-tarbiysi, dunyoqarashi uning sepidan ko’ra qadriroq ekan, to’yanan keyin farovon turmushni rejalashtirish, oddiy maishiyy sharoitlarni yaxshilash, ta’limga, ma’rifatga sarmoya kiritish dabdabali to’y o’tkazishdan ko’ra afzal ko’riliyotgani, inson qadr-qimmati, sha’ni o’zgalarining fikridan muhimroq ekanligini tushunib yetishlari uchun ko’proq amaliy qadamlar kerak.

Yevropa ittifoqining 12 ming yevro grantini qo’lga kiritgan 23 yoshli



Hilola To’xtamurodova haqida maqola tayyorlashga ahd qilishimizga sabab, qiyinchiliklarga bo’yin egmagan va aniq maqsadlar bilan harakat qilayotgan qizlarni namuna sifatida ko’rsatish. Hilola To’xtamurodova “Dunyo sen bilan” nomli Daun sindromli bor bolalarning hunar o’rganishiga ko’maklashuvchi ijtimoiy loyiha muallifidir.

Uning ushbu loyihasi Yevropa Ittifoqi tomonidan yuqori baholanib, 12 ming yevro mablag’ bilan moliyalashtirilgan o’zbek qizlari uchun faxr. Joriy yilning 20-23-mart kunlari Qirg’iziston Respublikasining Bishkek shahrida tashkil etilgan xalqaro yoshsh festivalida Hilola ham Daun sindromli bor bolalalar bilan ishlashga qaratilgan ilmiy metodik qo’llanmasi, shuningdek, mammakatimizning 11 hududida 276 nafar “quyoshli bolalar”ga hunar o’rgatGANI natijalari va tahlillarini xorijliklar bilan bo’lishdi.

— Imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish kerakligi haqida ko’p gapiriladi. Ammo jamiyatular bilan muloqotga qanchalik tayyor?

— deydi Hilola. — Daun sindromli bolalar juda mehribon, sabrli va oqko’ngil bo’ladi. Hech qachon yolg’on gapirmaydi, hammani birdek yaxshi ko’rishadi. O’z olamlarida yashaydi. Ular bekorga “quyosh bolalari” deyilmaydi, chunki har bir bolakay surli. Bunday bolalarda boshqalarga nisbatan aqliy va jismoniy jihatdan ortda qolish kuzatiladi. Ular o’z oila a’zolariga o’xshagini bilan yuz tuzilishi jihatidan ajralib turadi. Mazkur kasallikni davolab bo’lmasa-da, maxsus jismoniy va aqliy muolajalarni o’tkazib, uning rivojlanishini yaxshilash, jamiyatda o’z o’rni bo’lishi uchun imkoniyat yaratish berish mumkin.

Yurtimizda bu kabi bolalar uchun ij-

timoiy loyihasi tizimli ravishda tashkil etib kelinmoqda, o’tgan yili BMTning taraqqiyot dasturi ishtirokchilari o’zbekistonlik opa-singillar Daun sindromi bo’lgan bolalar uchun mobil ilova ishlab chiqqani e’lon qilingandi. Ushbu ilova yaratilishiha sabab, 18 yoshli Nastarinlar oиласида ham “quyoshli bola” dunyoga kelgani bo’lgan.

— Ukamiz tug’ilganida bu tashxisning mohiyatini unchalik tushummaganimiz. Ota-onam buni eshitib juda yomon holga tushgan. Ularning tushkunlikni yengib o’tishi juda qiyin kechdi. Atrofdagilarning fikri ham yordam bermadi, shundan so’ng singlim bilan “Sun Child”, ya’ni “Quyosh bola” mobil ilovasini ishlab chiqdik. Dasturni takomillashtirish va undan dunyo bo’ylab foydalananishlari uchun chet tillarida ham ma’lumotlar to’plab dastur qamrovini ommalashtirish maqsadidamiz, — dedi mobil ilova yaratuvchisi.

Metin iroda va kuch-g’ayrat bilan harakat qilayotgan qizlarni ko’rib havaslanadi kishi. Ularni qo’llab-quvlatlashda faol bo’ling, imkoningiz bo’lsa — ularni tinglang va uddalashiga ishontiring. Ana shunda so’zimiz boshida aytgan kabi voqealar kamroq yuz beradi. Har bir aqlli inson ortida ayollar turishini yoddan chiqarmaylik.

Marjona JO’RAQULOVA,  
Respublika “Yoshlar Ittifoqi”  
sardori

## Maktabdan tashqari bilim – “Barkamol avlod” bilan

Prezidentimizning 2019-yil 30-sentabrdagi “Xalq ta’limi tizimidagi maktabdan tashqari ta’lim samaradorligini tubdan oshirish choratadbirlari to’g’risida”gi qaroriga muvofiq, Respublikamizda faoliyat yuritayotgan 215 ta “Barkamol avlod” bolalar maktablarining faoliyatini takomillashtirish maqsadida bir qator tizimli vazifalar belgilab berilgandi.

Joriy yilning 13-aprel kuni yurtboshimiz rahbarligida yoshlar bandligini ta’milash va ularning bo’sh vaqtini mazmuni tashkil etish borasida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan videoselektor yig’iliishi o’tkazildi. Unda Prezidentimiz “Barkamol avlod” bolalar maktablarini faoliyatiga alohida e’tibor bilan to’xtaldi. Xususan, “Yoshlarning bo’sh vaqtini mazmuni o’tkazishga e’tiborni yanada kuchaytirish zarur. Bu borada respublikada mavjud 215 ta “Barkamol avlod” bolalar markazlari imkoniyatlaridan to’liq va samarali foydalanshing kerak. Bugungi kunda “Barkamol avlod” bolalar markazlari bor yo’g’i 175 ming nafar (3 foiz) yoshlarni qamrab olgan. Viloyat, tuman va shahar hokimlariga o’n kun muddatda “Barkamol avlod” markazlarida zamonaviy to’garaklar ochish va ularning har bir maktabda tarmoq filiallarini tashkil etish orqali qamrovni kamida 3-5 baravarga oshirish bo’yicha rejasini

ishlab chiqsin va amalga oshirsin (respublika bo’yicha kamida 500 ming yoshlarni qamrab olish kerak)” deya belgilab bergan aniq va tizimli ko’rsatmalari naqaqt hokimliklarni balki Respublikamizda faoliyat yuritayotgan barcha “Barkamol avlod” bolalar maktablarini zimmasiiga katta mas’uliyat yuklaydi.

Hozirgi kunga kelib, Respublikamizda 215 ta “Barkamol avlod” bolalar maktablarida 7 yo’nalishda 65 nomndagi 6 218 ta to’garaklar faoliyat ko’rsatmoqda. Mazkur to’garaklarlarga jaib etilgan 6 yoshdan 18 yoshgacha bo’lgan o’quvchi-yoshlarimiz quydagi yo’nalishlarda:

Madaniyat va san’at — 28 647 nafar, texnika, konstrukturlik va modellashtirish — 27 617 nafar, jismoniy tarbiya va sport — 11 594 nafar, hunarmandchilik va qo’l mehnati — 60 145 nafar, turizm va ekologiya — 25 924 nafar, olyi ta’lim muassasalari va maktabga tayyorlov kurslari — 9 543 nafar, xorijiy tillar



— 11 595 nafar, jami 175 065 nafar o’quvchi-yoshlar qo’shimcha bilim va hunarlarni o’rganib kelmoqdalar. Ularning 3691 nafari imkoniyati cheklangan, 369 nafarini ichki ishlar organlarida profilaktik hisobga olinagan o’quvchilaridir.

“Barkamol avlod” maktablarini viloyat va tuman (shahar) markazlarida joylashib, asosan ularga ushbu hududlardagi o’quvchilar jaib etilgan. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Bugun bolalarimizni maktab, ota-ona yoki institut emas, ak-sariyat holda qo’lidagi telefon tarbiyalamoqda. Mobil telefon endi oddiy aloqa vositasi emas, ko’pincha yot mafkurani tarqatidigan quroqla aylanmoqda. Ma’naviyatimizga mutlaqo begona, zararli g’oyalar chegarani buzmasdan, bildirmsandan xonadonimizga, jamiyatimizga kirib

kelyapti. Soat sari emas, daqiqasi sari kirib boryapti. Bularning barchasi biz uchun ogohlilik qo’ng’iroq’i bo’lib yangrashi zarur” deya bildirgan fikrlari zamirida juda katta ma’no, chuquq o’ylangan maqsad bor.

Yoshlarning bo’sh vaqtini mazmuni tashkil etish, ularga maktabdan tashqari vaqtlarida qo’shimcha, yangi bilim va ko’nikmalarni o’rgatish, madaniy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish orqali ularda turli yod g’oyalarga qarshi immunitetni shakkllantirish, ommaviy madaniyatning turli ko’rinishlariga ergashishini oldini olish, jamiyatga sog’lom fikrlovchi, hayotda o’z pozitsiyasiga ega yosh avlodni tarbiyalashda “Barkamol avlod” bolalar maktablarini ma’suldirilar va ulardagagi imkoniyatlar jamiyatimiz uchun katta foydali manbayidir.

Yurtboshimiz belgilab berigan vazifalar bugungi kunda “Barkamol avlod” bolalar maktablarini faoliyatini samarali yo’lga qo’yishda bir qator muammoli vaziyatlarni yechishda biz pedagog-xodimlari uchun katta umid bag’ishladi. Sababi, bugungi kunda “Barkamol avlod” maktablariga yaqindan e’tibor berilmaganidan ular faoliyatida kamchiliklarga yo’l qo’yligan. Endilikda ushbu masalalarni yechimini maktablarida tarmoq to’garaklarini barcha sharoitlarni yaratgan holda tashkil etilishida, o’quvchi-yoshlar qamrovini oshirishda, turli xil madaniy tadbirlarni ko’paytirish orqali o’quvchilarni maktablariga jaib etishda dastak bo’lishiga ishonamiz.

Sevara MAHMUDOVA,  
Respublika “Barkamol avlod”  
bolalar maktabi direktori

Dolzarb mavzu

# Asosiy maqsad: Ta'limga uzviylik va integratsiya

Toshkent viloyati ta'limgarayonida shunday yangi mexanizm yaratildi, bu hayotiy zaratutga aylanmoqda. Unda ta'limgarayonida o'tasida o'zaro nazorat ham, raqobat ham, manfaatlarning qondirilishi ham ta'minlanadi. Prezidentimizning 2017-yil 27-iyuldagida Qarori bilan tashkil etilgan Chirchiq davlat pedagogika instituti pedagogik ta'limga innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslarini yaratildi va uni amaliyatga tafbiq etishning mexanizmlari ishlab chiqildi.

Darhaqiqat, bunday pedagogik ta'limgarayonida shunday yangi mexanizm yaratildi, bu hayotiy zaratutga aylanmoqda. Unda ta'limgarayonida o'tasida o'zaro nazorat ham, raqobat ham, manfaatlarning qondirilishi ham ta'minlanadi. Prezidentimizning 2017-yil 27-iyuldagida Qarori bilan tashkil etilgan Chirchiq davlat pedagogika instituti pedagogik ta'limga innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslarini yaratildi va uni amaliyatga tafbiq etishning mexanizmlari ishlab chiqildi.



sor o'qituvchilari va iqtidorli talabalar bilan birga MTTlardi mayjud bo'shliq va muammolar aniqlanib, tarbiyachi pedagoglar uchun metodik qo'llanmalar va tavsiyalar ishlab chiqildi. Belgilangan tashkilotlarga elektron hamda nashr qilingan to'plam shaklida qo'llanmalar tarqatildi. Ma'naviy tadbirlar, teatrler tashkil qilinib, boshqa tashkilotlardan ham buyurtmalar qabul qilish boshlandi.

## Hamjihatlik, hamfikrlik asosida

Ta'limga uzviyligini ta'minlash maqsadida CHDPIda "Maktabgacha ta'limga" kafedrasi hamda Andijon viloyat XTXQTMOHM "Maktabgacha, boshlang'ich maxsus ta'limga metodikalarini" kafedrasi o'tasida o'zaro hamkorlik shartnomasi imzolandi. Kafedra o'qituvchisi Z.Teshaboyeva ta'limga zamona yondashuvlar asosida seminar trening o'tazdi. Fevral oyidan CHDPI "Maktabgacha ta'limga" va Jizzax davlat pedagogika instituti "Maktabgacha ta'limga metodikalarini" kafedrasi o'tasida hamkorlik shartnomasi imzolandi. Shundan so'ng Bo'ka tumanidagi "Shodiyona" nomli 5-MTT bilan o'zaro hamkorlik shartnomasi imzolandi. Ayni kezda hamkorlik ishlari kengayib bormoqda. Parkent tumanidagi 13- va Chirchiq shahridagi 8-MTT bilan hamkorlik shartnomalari tuzildi.

Natijada CHDPI "Maktabgacha ta'limga" kafedrasi profes-

Xullas, klaster asosida ta'limga uzviyligini ta'minlash masalalari bo'yicha muammolarni hal qilishda, malakali kadrlarni tayyorlashda OTMlarni hamjihatligi, hamfikrligi yo'lgaga qo'llanmoqda.

Institutda maktabgacha ta'limga muassasalarini faoliyatini to'laligicha o'rganish, mayjud kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida innovatsion tajriba maydonchalari faoliyati yo'lgaga qo'llanmoqda.

viriy faoliyat", "Rus tili", "Ingliz tili" to'garaklari faoliyati yo'lgaga qo'llanmoqda. To'garaklari faoliyati natijalari bo'yicha tarbiyalanuvchilarining bilimlarini baholash uchun nazorat savollari berildi va yakuniy baholar aniqlanib, bolalarning bilimlari 10,2 foizga o'sganligi aniqlandi. Natijada kafedra o'qituvchisi Maryamxon Abdullayeva tomonidan "Mahoratli tarbiyachi-pedagog" to'garagi tashkil etildi.

"Maktabgacha ta'limga" kafedrasi professor o'qituvchilari hamda Toshkent viloyati MTTlari, kunduzgi va maxsus sirtqi bo'limga talabalarini hamkorligida assotsiatsiya va uning telegram guruhlari tashkil etildi.

## Kasbga tayyorlash "bog'chasi"

Prezidentimizning ko'sratmasiga binoan, institutda "Maktab-laboratoriya" innovatsion tajriba maydonchalarida tajriba-sinov ishlari yo'lgaga qo'yish maqsadida laboratoriya bog'cha qurildi. Bu yerda "Maktabgacha ta'limga" kafedrasi hamda hamkor MTTlari bilan bayram tadibirleri, targ'ibot ishlari va uchrashuvlar doimiy tashkil etib kelinmoqda. Bunday tadbir va uchrashuvlari hamkorlikda o'tkazish bo'yicha kafedra bilan hamkor bo'lmagan MTTlardan ham takliflar kelib tushmoqda.

Ta'limga tizimiga malakali pedagog kadrlarni tayyorlash va rivojlantirishga yangicha yondashuvlari joriy etish maqsadida institut qoshida qad ko'targan "Mobil bog'cha laboratoriya" loyiha va konsepsiya ichki va tashqi dizaynlari yaratishda faol ishtirok etib, "Mobil bog'cha laboratoriya" patenti olindi.

Bu yo'nalishda dastlab 7 nafar professor-o'qituvchilar faoliyat olib borgan bo'lsa, hozir 19 nafarga yetdi. Shulardan ilmiy darajali o'qituvchilar soni 5 nafarga ko'paydi. Kafedra professor-o'qituvchilar salohiyatini oshirish maqsadida us-toz-shogird tizimini jonlantirish hamda talabalarga zamona yondashuvlari va o'quv qo'llanmalari tayyorlash bo'yicha 'timimsiz izlanishlar olib borilyapti. Shu jumladan, hamkorlik natijasida uzoq yillik tajribaga ega malakali tarbiyachilar kafedraga tashqi o'rindosh sifatida jaib qilindi.

"Maktabgacha ta'limga" kafedrasi tomonidan "Uy enagasi" qo'shimcha mutaxassislik tayyorlash maqsadida o'quv kurslari dasturi ishlab chiqildi. Natijada boshqa yo'nalish talabalari uchun qo'shimcha kasb egallash hamda sertifikatga ega bo'lish imkoniyati yaratiladi.

G'afurjon MUAMEDOV, Chirchiq davlat pedagogika instituti rektori, O'zbekiston Respublikasi fan arbobi Shukrullo MARDONOV, "Maktabgacha va boshlang'ich ta'limga" fakulteti dekan, professor Abduqayum ABDULLAYEV, "Maktabgacha ta'limga" kafedrasi mudiri, dotsent



qo'llanmoqda. Natijada kafedra professor-o'qituvchilar tomonidan ustoz-shogird tizimiga e'tibor qaratilmoqda.

Bundan ko'zlangan maqsad kafedra professor-o'qituvchilar hamkorligida ilmiy maqolalar nashr ettirish, tajribali o'qituvchilar tomonidan mahorat darslari, seminar, trening, ilmiy loyiylar tayyorlanishi bo'yicha tavsiyalar berib borishdan iborat.

Hozirda malakali, ko'p yillik tajribaga ega professor-o'qituvchilar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan yosh kadrlarga ilmiy mavzular tashunda tavsiyalar, magistratura da o'qishni davom ettirmoqchi bo'lgan iqtidorli talabalarga yo'nalish berib, ilmiy ijodga jaib qilinmoqda.

## Bola - nihol

Maktabgacha ta'limga yo'nalishi bitiruvchi talabalari tomonidan Chirchiq shahridagi 33-DMTT kichik va o'rta guruh tarbiyalanuvchilar bilan "Tas-

etildi. Assotsiatsiyaning asosiy maqsadi hamkorlar o'tasida onlayn tajriba almashtish, MTT ta'limga tarbiya jarayonida yangi texnologiyalarni tafbiq etish, ochiq mashg'ulotlardan foto va videolavhalari namoyish etish, seminar va treninglar o'tkazishdan iborat.

Shuningdek, maktabgacha ta'limga yo'nalishi talabalari va kafedra ustozlari hamda MTT tarbiyachi pedagoglari tomonidan fakultetda "Ijodiy ishlar" galereyasi tashkil qilindi. Galereyada talabalarning uchun amaliy mashg'ulotlar olib borilmoqda.

Shu bilan birga professor-o'qituvchilar tomonidan ota-onalar uchun tavsiyalar ham ishlab chiqilmoqda.

Ayni kezda institutda ilmiy izlanuvchi tadqiqotchilar tomonidan maktabgacha ta'limga yoshidagi bolalar ta'limga tarbiyasi va jismoniy rivojlantishiga doir ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu ilmiy izlanishlarning barchasida ertangi kun istiqbollarini mujassam.

# Malakali muallimlar maktabga qaytdi

Jahondagi ko'pgina rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularda jamiyat hayotini o'zgartirishga qaratilgan islohotlar avvalo ta'lismizidan boshlanganiga guvoh bo'lamic. Buning sababi, maktabni o'zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi.

Tumanimizda o'tgan yili investitsiya dasturi asosida 534 million so'mlik hajmdagi rekonstruksiya ishlari amalga oshirildi. Ana shu mablag' hisobiga 5-umumta'lism maktabining Yuqori Boybo'ta qishlog'idagi 60 o'rinni filiali binosi to'liq rekonstruksiya qilindi. Bu ta'lum dargohiga o'quv jihozlari ham yetkazib berildi. 47-umumta'lism maktabi esa inqiroz qarshi davlat investitsiya dasturiga tushdi. Qurilish ishlari uchun respublika budgetidan 3 milliard 604 million so'm mablag' ajratildi. Bundan tashqari, yana bir maktabda kapital ta'mirlash, boshqasida rekonstruksiya ishlari bajarildi. Maktablarga mahalliy budget mablag'larini hisobidan 60 million so'mlik parta va stullar yetkazildi.

Ayni paytda tumanimizda 56 ta maktab va 1 ta ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lism maktab-internati faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda ta'lum-tarbiya olayotgan o'quvchilar 28 ming 250 nafar. Savol tug'iladi. O'quvchilarning malakasi qay darajada?

Bu boradagi ko'rsatkichlarimiz maqtanarli darajada bo'lmasa-da, faoliyatimizni qoniqarli baholash mumkin. Jami pedagog xodimlarimiz 2609 nafar. Ularning 84,6 foizi oliy ma'lumot, 2,8 foizi tugallannagan oliy ma'lumot-

ga ega kadrlardir. Bundan tashqari, 331 nafar o'rtas maxsus ma'lumotli pedagog kadrlarimiz ham bor. Bu barcha o'quvchilarning 12,6 foiziga to'g'ri keladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, bunday o'quvchilarning aksari nafaqa yoshiga yaqinlashib qolgan kadrlardir. Ulardan oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirishni talab etish yoki ma'lumot sabab ishdan ozod qilish insoniylik qoidalariiga, milliy mentalitetimiz talablariga aslo to'g'ri kelmaydi. Qolaversa, bunday o'quvchilarida malaka, ko'nikma, tajriba yetarli.

Oliy toifali o'quvchilarimiz 70 nafar, binchinchi toifalilar 242 va ikkinchi toifalilar 695 nafar. Mutaxassis toifasidagi o'quvchilarimiz ko'philik — 1203 nafar.

Ish haqi kamligidan, qishloq maktabida o'quvchchi mehnatiga, obro'siga e'tibor sustligi bois ta'limgandan bezib, boshqa sohalarda ishlaryotgan bir qancha malakali muallimlarimiz yana maktablarda ishlay boshladil. Shuningdek, 122 nafardon ortiq nafaqa yoshidagi o'quvchchi yana qadrdon maktabiga, sevimli o'quvchilar, shogirdlari yoniga qaytdi.

Tumanda faqatgina ijtimoiy jabhada emas, barcha sohalarda erishilayotgan yutuqlar, to'planib qolgan muammolar va ularning yechimini, barcha ijobjiy o'zgarishlarni binchinchi galda maktab bilan

bog'lash adolatli bo'ladi. Negaki, hech bir sohani maktabsiz tasavvur qilolmaymiz. Davrimizning eng ilg'or kishilari, olim-u fuzalolari, rahbarlik lavozimida ishlaryotganlar- u yetuk mutaxassislarining barisi ana shu maktablardan bilimlar dunyosi sari parvoz etishadi.

Bilamizki, yaqin yillarda ham "urf'da bo'lgan majburiy mehnat o'quvchilar obro'siga putur yetkazgandi. O'quvchilar o'quvchilarimiz paxta yig'im-terimiga va boshqa mavsumiy ishlarga, hatto ko'cha supurishgacha jaib qilinardi. Bunday tutum natijasida ta'lum sohasi jar yoqasiga kelib qoldi. O'z qadri bilgan ko'pgina bilimdon o'quvchilar maktabni tashlab, boshqa sohalarga o'tib ketishdi.

Faqat 2019-yilga kelib, xalq ta'limgadi ishlar qayta jonlandi, joylarda yangi ta'lum koshonalar bunyod etishga, ularda o'quvchi va o'quvchilar uchun yetarli sharoitlar yaratishga kirishildi. O'quvchining qadri oshdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tonomidan olg'a surilgan besh tashabbus yoshlarimiz hayotida muhim o'rinni tutadi. Tashabbuslar yoshlarimizni ko'zlangan maqsadlar sari boshlaydi, barcha jabhalarda erishilishi lozim bo'lgan muvafaqiyatlari yo'llarini ko'rsatadi. Birinchin tashabbus — yoshlarining misuqa, rassomlik, adabiyot, teatr vva san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish bo'yicha umumta'lism maktablarida 419 ta to'garak tashkil etildi, ularga 5521 nafar o'quvchi jaib etildi. Shuningdek, madaniyat markazlarida va umumta'lism maktablarida 38

ta teatr studiyalari tashkil etilib, bu studiyalarda 418 nafar o'quvchi shug'ullana boshladi.

Ikkinchi tashabbus bo'yicha umumta'lism va sport maktablarini yoshlarni jismoniy chiniqtirish va sport sohasida qobiliyatlarini namoyish etishlari uchun ziar shart-sharoitlar yaratib berildi. Tashkil etilgan 526 sport to'garagiga 7826 nafar o'quvchi-yoshlar jalb etildi.

Tashabbuslarning har biri bir-biridan muhim ekanligi bilan ahamiyatli. Masalan, uchinchi tashabbus maqsadi aholi, xususan yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalananishga qaratilgan. To'rtinchchi tashabbus esa yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib etishga yo'naltirilgan bo'lsa, beshinchi tashabbus xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini o'z ichiga olgan.

Maktablarimizda ularning birortasi e'tibordan chetda qoldirilmayapti. Doimiy ravishda o'z ustida ishlashni kanda qilmaydigan, hamisha bilimlarini oshirib borishga harakat qiladigan o'quvchilarimiz o'quvchilarga ta'lum-tarbiya berishning zamonaviy usullarini faoliyatlariga tatbiq etmoqdalar. Zero, maktab ta'lum va tarbiyaning poydevori ekan, uning asoschisi, ijrochisi albatta, o'quvchi bo'lib qoladi.

**Surayyo ORTIQOVA,**  
Oqdaryo tuman hokimining  
ta'lum va tarbiya ishlari bo'yicha  
maslahatchisi  
(tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri)

# Kitobxonlik — huquqbazarliklarni qisqartiruvchi omil

Zamonaviy jamiyat postindustrial rivojlanish bosqichida bo'lib, u yangi axborot makoni bilan ajralib turadi va audiovizual axborot uzatish vositalarining kuchli rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Bu tendensiyalar o'z o'rnda o'qish jarayoniga sezilarli ta'sir qiladi: bir tomonidan, o'qishdan uzoqlashtiradi, boshqa tomonidan — ular o'zga yo'llar bilan ma'lumot olishga imkon beradi.

Afsuski, bunday sharoitlarda yoshlar o'rtasida o'qishga qiziqsiz bir ish sifatida qabul qilinmoqda. Shundan kelib chiqib, shoshilinch va kechiktirib bo'lmaydigan vazifalardan biri bu — ongli ravishda o'qishga bo'lgan qiziqishni tiklash masalasi bo'lib qolmoqda.

Yoshlarni kitobxonlikka jaib qilish masalasini amalga oshirish yoki amaliyotga ttabiq etish usuli bunga tegishli sharoit yaratish bo'yicha chora-tadbirlar bilan chambarchas bog'liq-

ligini anglagan holda, ularni rivojlanish usullari bilan ham birgalikda ko'rib chiqish lozim. Sunday usullar sifatida mahalliy hokimiyat va o'zini o'zi boshqarish organlarining muhim vazifalaridan bire bo'lgan turli xil loyihalarini amalga oshirishni taklif qilish mumkin. Masalan, mahalliy aholi manfaatlarni va qiziqishini inobatga oлgan holda har bir mahallada mini-kutubxonalarini yaratish, joylarda yangi o'qishni boshlagan kitobxonlik bilan konsultativ-maslahat ishlarni tashkillashtirish va faollashirish, uyushmagan yoki ishsiz yoshlar o'rtasida turli tanlovlari o'tkazish, badiiy

kitoblarni nashr etish, joylarda uchrashtuvlar, kitobxonlikka jaib qiladigan qiziqarli tadbirlarni tashkillashtirish, audiokitoblar, kitoblariga bag'ishlangan turli televizion va radio dastrurlarini yaratish, adabiy yangiliklarni muhokama qilish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlanish va qo'llab-quvvatlashning milliy dasturi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrda qarori bilan tasdiqlangan. Dastur bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Birinchini bosqich — 2020-2021-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlanishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalgalashish.

Ikkinchi bosqich — 2022-2023-yillarda o'qish madaniyati infratuzilmasini mustahkamlash.

Uchinchi bosqich — yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatini, ularning intellektual salohini,

yatini rivojlanirish hisobiga 2024-2025-yillarda inson kapi-tali sifatini oshirish.

Qabul qilingan hujjatda har yili aprel oyining binchinchi haftasida "Kitobxonlik haftaligi" o'tkazilishi belgilangan va 2020-2021-yillarda Dasturni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlangan, unga ko'ra:

noshirlar tomonidan yozuvchilariga qalam haqi to'lash masalalarini takomillashtirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjat loyihasi;

rassom va dizaynerlarga mualliflik huquqi va gonorar to'lash tartibi va miqdori to'g'risidagi nizom loyihasi;

kitobxonlik madaniyatini rivojlanishning bo'yicha o'tkazilishi, "Eng yaxshi o'qish platformasi", "Eng yaxshi kitobxon jamoati", "Eng yaxshi o'qiydigan o'quv muassasasi" reytinglarini kirish va boshqa qator ishlarni amalga oshirish belgilangan.

Shunday qilib, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni rivojlanirish, ularni kitob o'qishga qiziqtirish masalasi bir qarashda kichik bir e'tiborsiz qoldirsada bo'ladigan masaladek tuyulsa-da, biroq hozirgi globallashuv jarayonida yoshlar ongini turli yet g'oyalar bilan to'ldirishga, ularmi to'g'ri yo'ldan adashtirishga yo'naltirilgan harakatlar davrida, ushu tashabbus dolzarb va amalga oshirishini kechiktirib bo'lmaydigan chora sifatida ko'rilishi darkor.

Chunki kitobxonlik bugungi kunda olib borilayotgan yoshlar siyosatining asosiy bir omillaridan bo'lib, u yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli va samarali o'tkazishga, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-ruhiy, vatnparvarlik va mehnatevarlik tuyg'ularini rivojlanirishga, va eng asosiyi, kelajakda to'g'ri yo'lni tanlashga va ular o'rtasida huquqbazarliklarni qisqartirishga xizmat qiladi.

**Shuhrat SHOKIROV,**  
TDYU Ixtisoslashtirilgan filiali o'quvchisi

Ikkinchi maqola

# “...Ertak aytardi buvim”

*yoxud bolalar kutubxonasi uchun tavsiyalar*

1


Odatda yosh xususiyatlarga qarab bolalik uch davrga bo'linadi. Har uchala davrning qiziqishlari doirasi, orzu va intilishlari bir-biridan farqlanadi. Keling, biz ham ularni alohida-alohida munozara markaziga olib chiqib, shu davra bolalarni nimalardan saqlash, diqqatini nimalarga jamlash, tafakkurini nimaga qaratish yuzasidan fikr-mulohazalarimizni o'rtoqlashaylik.

## 1. Kichik yoshdagagi bolalar.

O'ris birodarlarimiz aynan shu yoshdagagi bolalarni erkabal "pochemuchka" deb atashadi. O'rinli e'tirof. Kichik yoshdagagi farzandingiz yoki nabirangizning barcha savollariga javob berish Sizni ancha-muncha qiyin qo'yishi shubhaisiz. Bu yosh guruhidagi bolalar qiziqishi had-hududini belgilash amrimahol. Nima haqida gap ochmang ko'plab "nega shunday", "nima uchun" larga duch kelasiz. Go'yoki G'afur G'ulomning "Shum bola"sidagi xasis boyning "innan keyin, innan keyin"lariga duch kelgandek. Bolani o'trik so'zlar bilan aldash ham noo'rin, vaqt kelib o'sha o'tringiz o'zingizga qaytishi yoxud bola tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Xalqimizning kattaga hurmatda bo'lish bilan bir vaqtida kichikka izzatda bo'lishga da'vat etuvchi maqolining ahamiyati ham shunda.

Bolaga ona mehri nafaqat ko'krak suti, balki tunlari uyqusi qochgan farzandiga aytgan alla bilan o'tadi. Ehtimol bolada esini tanib-tanimaganidan kattalardan ertak aytib berishini so'rash xususiyati onasi aytgan allalarini qo'msash hissidan tug'ilgandir. Qishloqda aksariyat aholi yoz oqshomlarini hovli o'rtasidagi taxta so'ri yoki loysuvvoq supada o'tkazdi. Yulduzlar g'ujg'on o'ynagan osmonga ko'z tikib yotarkansiz, diqqatingizni olis-olislardan taralayotgan sado tortishi bilan bolalik yillaringizni eslab, shirin bir entikasiz. Xotiralaringiz qatini kovlagan bu sado yig'loqi bolasini ovuntirish uchun aytlayotgan ona allasidir. Ehtimol bu umrimiz mobaynida tinglagan eng sevimli va totti qo'shiqdir.

Maorifchilar o'rtasida "alifboden chiqish" degan ibora bor, bu bola tilmizda mavjud bo'lgan barcha harflarni o'rganib bo'lganidan darak beradi. Kichik yoshdagagi bolalar haqida so'z yuritganimizda mazkur iborani "alladan chiqish" deb ishlatsak o'rni bo'ladi. Ona allasi ta'mini oлган bola qiziqishlarining doirasi kengayadi. U shiringina tillari bilan Sizdan allaning o'rmini bosadigan nimadir talab qiladi. "U kim, bu nima?" degan savollar zamirida shu qiziqishlar yotadi. Bolani ayni shu paytdan ertaklar olamiga yetaklash, ayniqa tungi uyuq oldidan qiziqarli ertaklar so'zlab berish lozim. Har bir bolaning o'ziga yoqib tushgan ertagini esa necha bor talab qilsa, shuncha bor qayta-qayta aytib berish dan erinmaslik kerak.



Olti yoshli nabiram Parizodanining momosidan har kuni "Yoriltosh"ni bir bor tinglab, so'ng uyquga ketishidan xabarim bor. Psixologlar ota-onasi, yoki buvi-bobo ertak tinglashni bolaning ixtiyoriga topshirishi kerakligi, zarur bo'lganda bolajonlarning xohishiga ko'ra, bir necha kun bir ertakni takror so'zlab berishdan erinmasliklari lozimligini maslahat berishadi. Bolani siltab tashlash, iltimosini bajarmaslik uning tabiatida egoistik xususiyatlarni uyg'otib, serzarda bo'lishiga olib kelsishi hayotiy tajribada o'z isbotini topgan. Xo'sh, shunday ekran ertaklar bola tarbiyasida qanday o'rinni tutadi, bolaga yosh doirasiga qarab ko'proq nimalarni so'zlab bergan ma'qul? Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ertaklar hayvonlar, parrandalar, dev-parilar, ajdaho-yu jodugur kampirlar haqida hikoya qiluvchi sehrli, aksornaviy yoki ijtimoiy-maishiy xarakterda bo'lishidan qat'i nazar, ular har bir xalqning madaniyati, ruhiyati, dunyoqarashi, urf-odatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Ijobiy qahramonlar o'z ko'zlagan maqsadlari yo'lida barcha to'siq va g'ovlarni mardlik, jasorat, eng muhimmi aql bilan yengib o'tishadi. Ertaklarining bunday yakuni murq'ak qalbalda hayotsevarlik,adolat, haq ishga intilish tuyg'ularini yanada chuqurlashtiradi.

"Susambil" degan sehrli diyor boligini hammamiz bolalikdan yaxshi bilamiz. Negaki, bu ertakni qaysidir birimiz kattalardan tinglagan bo'lsak, qay birimiz rasmli kitobdan takror-takror mutolaa etganmiz. Va shu tariqa "Susambil" bolalik olamimizning bir bo'lagiga aylanib qolgan. Bundan shunday xulosa chiqadiki, tabiat olami bilan bog'liq ertak kichikintoylargacha katta quvonch bag'ishlabgina qolmasdan, ularni bepoyon, go'zal, musaffo dasht-u dalalar, sershovqin o'rmonzor, bog'-rog'lar, baland-balandy qir-adirlar, dara-yu tog'lar, tezoqar daryolar bilan tanishadir. Dilidagi tabiatga muhabbat

tuyg'usini mustahkamlaydi. O'zingiz tajriba o'tkazib ko'rishingiz mumkin, ertaklar olamida o'sayotgan bolani nimadir sabab bilan uyasidan tushib ketgan chumchuq polaponi taqdidi benihoya tashvishlantirsa, unga qandaydir yordam ko'rsatmasdan tinim nimaligini bilmasa, bu olam sehridan yetarli darajada bahraramd bo'lmagan bola polapon boshini shafqatsizlarcha uzib tashlashga qodir ekanligining shohidi bo'lasiz. Aynan murg'ak chog'idan bola xarakteri shakllanadi. Mana shu psixologik jarayonga ijobiy yondashmasak, vaqt kelib attang deb qolishimiz shubhasiz.

...Parizoda bog'chadan bir olam taasurotlar bilan qaytdi:

— Bobojon, bilasizmi, biz bugun bog'cha opamiz boshchiligidagi "Bo'g'irsoq" ertagini sahnalaشتirdik.

— Sen kim bo'lding, qizim, — deb uning boshini silayman.

— Bo'g'irsoq bo'ldim.

— Eh-ha, unda seni ayyor tulki aldbab, yeb qo'ygandir.

Nabiram bir zum ma'yuslanib qoldi-da:

— Lekin endi o'ynasak uning ayyorligiga aldanmayman, — dedi...

Bu misolni bejiz keltirmadim. ertaklar bola uchun nafaqat tinglash va muto-la qilish zavqini beradi, balki harakatli o'yinlar olamini ham kengaytiradi. "Susambil", "Sholg'om", "Bo'g'irsoq" va boshqa o'nlab o'yinlar aynan ertaklar vositasida yuzaga kelgan. O'yinga aylangan ertaklarining aksarida voqealar yangi personajlar qo'shilishi bilan takrorlanib boradi. Negaki, ular ma'lum bir suhbat chizig'iga ega. Bunday ertaklar bolalarni fikrashga, voqealarini tartib bilan aytishga, so'z boyligini oshirishga o'rgatib qolmasdan, ularda mehnat qilish zavqi, jamao bo'lib harakatlanish ko'nikmasini shakllantiradi.

Umuman olganda, kichik yoshdagagi bolalarni adabiyot olamiga yetaklashni o'ziga xos tizim asosida qurish

kerak. Bugun bu yoshdagagi bolalar uchun jippi kutubxona shakllantirish muammo bo'lmay qoldi. Kitob do'konlari yoki aholi gavjum joylardagi yoymalarga ko'z tashlasangiz turli dizynda nashr etilgan yuzlab kitoblarga duch kelasiz. O'ziga xos seriyalarni aytmasizmi. Istagan kitobni topish mumkin. Ammo aksarimiz bolamizga, nabiramizga quvonch bag'ishlashdan oniy kayf-safoni, qorin to'qligini afzal bilayotganimiz ham bor gap.

Ko'pincha katta yoshdagagi tanishlarimiga:

— Bolangizga kitob sovg'a qilganimisiz, — degan savol bilan murojaat etib, aksariyat hollarda bir xil:

— Qo'ysangiz-chi, domla, kitobdan ham sovg'a bo'larimdi, — degan javobni eshitganimda o'z sehrli olamini yaratish baxtidan mosovo etilayotgan bolalar taqdirni meni tashvishlantiradi.

Ertaga "bu qulqosiz qayerdan paydo bo'ldi" deb tashvishlangandan ko'ra, bugun bolaga qo'proq kitob berish kerak. Uning qiziqishlari doirasinu muttasil kuzatib borish, zarur bo'lsa qaysi adabiyotlarni qachon o'qish yuzasidan maslahatlarni darig' tutmaslik lozim. Kichik yoshdagagi bolalar kutubxonasi qanchalik darajada boy va mazmundor bo'lishi ta'minlansa, uni so'z sehriga mahliyo etib tarbiyalash, so'zning sehrli olamidan bahramand etish borasida ijobiy natijalar qo'Iga kiritiladi.

Yaqinda atoqli qirg'iz adibi Chingiz Aytmatovning yapon mutafakkiri Daysaku Ikeda bilan "Ruhiy buyuklikka qasida" deb nomlangan suhbat-kitobini varaqlar ekanman, yigirmanchi asrning bu buyuk ikki donishmandi suhbatni "Bolalik kitobi" haqidagi munozara bilan boshlaganligini ko'rib, bolada kitobxonlikka ertachi havas uyg'otish naqadar muhim ekanligini o'zim uchun yana bir bor kashf etdim. Mutolaa davomida Siz ikki tomonning o'z bolalik kitoblari, sevimli qahramonlari, ular o'zlarining shakllanishida qanchalik rol o'ynaganligi, so'zning sehrli olami, qo'lingizga ilk tushgan kitob dunyoqarashningizni qay yo'sinda burib yuborishi to'g'risida shunchalik berilib suhbat qurishadiki, beixtiyor siz ham ularga qo'shib bolalik olamingizga sho'ng'ib ketasiz.

Ertaklar bolani adabiyot dunyosiga yetaklab kirishda o'ziga xos poydevor vazifasini o'taydi. Kichik yoshdagagi bolangizga kitob tanlash jarayonida uning mazmuni bilan bir vaqtida shakliga ham e'tibor qaratish zarur. Turli xil tasvirlar, qiziqarli rasmlar bilan boyitilgan kitob bolani zeriktirib qo'yaydi. O'zi ko'rgan tasvirdagi voqealar qachon sodir bo'лади, nima bilan yakun topadi degan qiziqish bolani kitobga mustahkam bog'laydi. Shu tariqa farzandingizda kitobxonlikka moyillikni kuchaytirasiz, asta-sekinlik bilan uning kutubxonasi ni biroz jiddiy, sujet chizig'i uzun, serqahmon sarguzasht asarlar bilan boyitib borishni unutmaslik foydadan xoli bo'lmaydi.

**12** “Ona tili” darsligi asosida tuzilgan test topshiriqlari beriladi. Mazkur mavzularini qunt bilan o’qing va bilimingizni mustahkamlang.

# “Ma’rifat” repetitor

## Majburiy fanlar asosida tuzilgan, mavzulashtirilgan testlarning 28-variانتи

### ONA TILI

(9-sinf: 90-122-betlar)

1. Tuman gazetasiga kichik-kichik xabarlar yozib turardim. Bir kuni rahmatlik otam yonlariga chaqirib: – Mayda-chuya xabarlar yozishningi qo’si, o’g’lim. Endi kattaroq bir narsalar yozgın, to’rt odam o’qib, bir-biriga aytadigan bo’lsin! – dedi. (A.Jo’ravev)

Matn tuzuvchining maqsadiga ko’ra ushbu matn turini aniqlang.

- A) hikoya matni      B) muhokama matni  
C) tasviriy matn      D) ilmiy matn

2. Qaysi javobda tasviriy matndan parcha berilgan?

A) Nihoyat, u uyquga ketgan bo’lsa kerak, tush ko’rdi. Go’yo mehmonxonaning yonida yana bir hujra qura boshlagan emish...

B) Temurbek qaddi-qomati raso, baland bo’yli, keng peshonalı, qoshlari quyuuq, ko’zlar katta-katta bir yigit edi...

C) Afrika qabilalaridan birida jinoyat qilgan odamni sazoyi qilish, qamab qo’yish, qatl etish degan gaplar yo’q ekan...

D) Dunyoda shunday hunarlar borki, xatosini hech kim tuzata olmaydi. Bular – shifokor va huquqshunos...

3. Qaysi javobda muhokama mazmuniga ega bo’lmagan matndan parcha berilgan?

A) Somon suvoq chakki bo’lmagan: faqat bir-ikki xonaning burchaklari notebrisqoq chiqqandi. Buning sababi gazcho’p ishlatalishni yaxshi bilmaslikda edi...

B) Har bir ishga mehr kerak. Mehr bilan qilinmagan ish ertaga tashvish keltiradi...

C) Yarim kecha bo’lib qolgan, atrof jimxit. Faqat olsillarda it uliydi...

D) Ba’zan «mirshikor» so’zini «mirishkor» tarzida o’rinsiz ishlataladilar. Holbuki, buning to’g’ri shakli «mirshikor» bo’lib, «mir» va «shikor» so’zlaridan yasalgandir.

4. Xastalikning yaxshi-yomoni bo’lmaydi, amma eng dahshatlisi johillikdir.

Ushbu qo’shma gap qismlarini bog’lashga xizmat qilgan bog’lovchi turini aniqlang.

- A) biriktiruv      B) inkor      C) ayiruv  
D) zidlov

5. Tinish belgilari va ularni yozma nutqda to’g’ri qo’llash yo’l-yo’riqlarini o’rgatuvchi tilshunoslik bo’limi qaysi javobda to’g’ri ko’rsatilgan?

- A) punktuatsiya      B) sintaksis  
C) fonetika      D) morfologiya

6. Darhaqiqat inson qancha bilim va boylikka ega bo’lmasin uni so’z nutq bilan ifodalab bera olmasa bunday bilim malakaning o’zgalarga nafi bo’lmaydi.

Ushbu gapning necha o’rnida vergul tushirib qoldirilgan?

- A) oltita      B) beshta  
C) to’rtta      D) uchta

7. Muallif javob qildi//  
//Uz zehni o’tkir// bilimga chanqoq bo’lgan va boshqalardan so’rab o’rganishdan uyalmagan// shuning uchun uni «ma’rifatli» deb ataganlar//

// belgisi o’rniga qo’yilishi kerak bo’lgan tinish belgilari qaysi javobda to’g’ri berilgan?

- A) qo’shtirnoq, ikki nuqta, vergul, vergul, undov  
B) nuqta, tire, chiziqcha, vergul, nuqta  
C) ikki nuqta, tire, vergul, vergul, nuqta  
D) tire, chiziqcha, vergul, vergul, nuqta

8. Sen borsan – men uchun bu hayot go’zal,

Sen borsan – men uchun dilbar koinot. (A. Oripov)

Ushbu gapdagagi tirening ishlatalish sababi qaysi javobda to’g’ri izohlangan?

- A) gaplar dialog shaklida bo’lgani uchun  
B) bog’lamasiz qo’llangan ot kesimning ega bilan bo’g’lanishi uchun

C) qo’shma gap qismlari zidlash ma’nosini ifodalangan uchun

D) qo’shma gap qismlari orasida sabab munosabati ifodalangan uchun

9. Qo’shtirnoqning ishlatalishi yoki ishlatalmasligiga ko’ra noto’g’ri hukm(lar)ni aniqlang.

1. Badiiy asarlari, gazeta, jurnal, musiqa asarlari, spektakl va kartina nomlari qo’shtirnoqqa olinmaydi.

2. Korxona, muassasa, tashkilot, zavod, fabrika, mehmonxona, kema nomlari qo’shtirnoq ichida yozilmaydi.

3. Ayrim orden va medallar, faxriy unvonlar nomi qo’shtirnoq ichida beriladi.

4. Ko’chirma gap qo’shtirnoqqa olinadi.

- A) 1, 2      B) 2, 4  
C) faqat 2      D) 3, 4

10. Yo alhazar!.. Salomni ham ravo ko’rmadi-ya...  
Ishlab o’rgangan odam, baribir, yuda o’tirolmaydi...  
(F.Salayev)

Ushbu gapda qo’llanilgan ko’p nuqtaning ishlatalish sababini izohlang.

- A) subbatdoshining gapi javobsiz qoldirilgani uchun  
B) gap mazmuni tugallanmay qolgani uchun  
C) matn (jumla) qisqartirilgani uchun  
D) fikr bo’lib-bo’lib ifoda qilingani uchun

11. Meni inglez tili chuqurlashtirilib o’qitiladigan 9-«A» sinfiga o’tkazishingizni so’rayman.

Ushbu gap ish qog’ozlarining qaysi turida keltirib o’tilgan?

- A) bildirishnoma      B) ariza  
C) tushuntirish xati      D) tilxat

12. «Inson aqlining hamma narsani ochuvchi uchta kaliti bor // bilim //fikr va tasavvur», // deydi Viktor Gyugo.

// belgisi qo’llanilgan necha o’ringa tire qo’yiladi?

- A) bir o’rinda      B) ikki o’rinda  
C) uch o’rinda      D) tire qo’yilmaydi

13. //O’qish kitobi//, Oybekning //Qutlug‘ qon//, G’afur G’ulomning benazir she’rlari...

Gapdag'i // belgisi o’rniga qo’yiladigan mos tinish belgi(lar) qaysi javobda to’g’ri berilgan?

- A) tire, qo’shtirnoq      B) qavs  
C) qo’shtirnoq      D) qavs, qo’shtirnoq

14. Alisher Navoiy //1441-1501// eski o’zbek adabiy tilining asoschisi sanaladi.

Gapdag'i // belgisi o’rniga qo’yiladigan mos tinish belgi qaysi javobda to’g’ri berilgan?

- A) rasmiy      B) publisistik  
C) badiiy      D) so’zlashuv

UYGA VAZIFA: Keyingi sonda 9-sinf “Ona tili” darsligi asosida tuzilgan test topshiriqlari beriladi. Mazkur mavzularini qunt bilan o’qing va bilimingizni mustahkamlang.

Dildor NURMUHAMMEDOVA,  
Termiz shahridagi 23-maktabning  
ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi

### MATEMATIKA ("Takrorlash testlari", 6–8-sinf materiallari bo’yicha)

16. Uchburchakning birinchi tomoni  $x$  ( $x > 5$ ) sm, ikkinchi tomoni undan 3 sm qisqa, uchinchi tomoni esa birinchisidan 5 sm uzun. Shu uchburchakning perimetriini toping.

- A)  $(3x-1)$  sm      B)  $(3x+2)$  sm  
C)  $(3x-2)$  sm      D)  $(3x+1)$  sm

17. Uzunligi 1;3;5;7;9 ga teng bo’lgan kesmalar berilgan. Bu kesmalaridan tomonlari har xil bo’lgan nechta turli uchburchak yasash mumkin?

- A) 4      B) 3      C) 5      D) 2

18. To’g’ri to’rburchakning tomonlari 72 m va 8 m. Unga tengdosh bo’lgan kvadratning tomonini toping.

- A) 36      B) 28      C) 24      D) 18  
19. Tenglamaning ildizlari yig’indisini toping:  
| x-3 | = 6

- A) 8      B) 15      C) 6      D) -6

20.  $x=2,73 \pm 0,01$  ni qo’sh tengsizlik ko’rinishida ifodalang.

- A)  $2,71 < x \leq 2,74$       B)  $2,72 \leq x \leq 2,74$   
C)  $2,73 \leq x \leq 2,74$       D)  $2,72 \leq x \leq 2,74$

21.  $\sqrt{31}$  soni qaysi natural sonlar orasida

joylashgan?

- A) 5 va 6      B) 6 va 7  
C) 3 va 4      D) 4 va 5

22. Soni standart shakliga keltiring: 0,000000312.

- A)  $3,12 \cdot 10^{-7}$       B)  $312 \cdot 10^5$   
C)  $3,12 \cdot 10^{-8}$       D)  $312 \cdot 10^4$

23. 1 soat 15 minutni soatga aylantiring.

- A) 1,15 soat      B)  $1\frac{1}{4}$   
C)  $1\frac{1}{3}$  soat      D) 1,45 soat

24. Eng katta ikki xonali songa qaysi son qo’shilsa, 10 ga teng bo’ladi.

- A) 89      B) -89

- C) 99      D) -99

25. Komronbek eni 50 m va bo’yi enidan 2 marta ortiq bo’lgan to’g’ri to’rburchak shaklidagi maydonni aylanib chiqmoqda, agar uning qadamining uzunligi 60 sm bo’lsa, Komronbek bu maydonni aylanib chiqish uchun necha qadam tashlaydi?

- A) 50      B) 500      C) 5000      D) 50000

26. Abonent hisobida 75 sent bor edi, suhbatdan so’ng 45 sent qoldi. Suhbatning bir daqiqasi 1,5 sent bo’lsa, suhbat qancha davom etgan?

- A) 20 minut      B) 24 minut  
C) 22 minut      D) 25 minut

27. Do’konda 8 xil shirinlik sotilmoqda. Ularning narxlarini quyidagicha:

- 3000, 5000, 15000, 24000, 6000, 12000, 16000, 8000. Tanlanma medianasini toping.

- A) 8000      B) 10000      C) 12000      D) 15000

28. Humoyun to’g’ri to’rburchak ko’rinishida, 80 m 50 m o’lchamli stadiionni 10 marotoba to’liq yugurdi. U necha kilometr yugurdi?

- A) 1,5 km      B) 2 km      C) 2,6 km      D) 3 km

29. Massa (og’irlik) o’lchov birliklari orasidagi to’g’ri munosabatni aniqlang.

- A) 1 t = 10 sr      B) 1 kg = 100 gr  
C) 1 sr = 1000 kg      D) 1 t = 100 kg

30. 7 raqami bilan tugaydigan ikki xonali sonlar nechta?

- A) 8      B) 9      C) 18      D) 19

Keyingi sonda “Jadvallarda keltirilgan ma’lumatlar tahlili” mavzusiga oid murakkabroq testlar beriladi, testlar 6–8-sinf materiallari bo’yicha tuziladi.

Hamza XUDOYBERDIYEV,  
G’ijduvon tumanidagi 32-maktabning  
matematika fani o’qituvchisi

# “Mařifat” repetitor

## Majburiy fanlar asosida tuzilgan, mavzulashtirilgan testlarning 28-variante

### O'ZBEKİSTON TARİXİ

#### (10-sinf “O'zbekiston tarixi” darsligining 16–22-mavzulari asosida tuzilgan test topshirqlari)

**31. O'zSSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi lavozimida faoliyat yuritish mahalliy kadrlarni rahbarlik yillarda bilan muvofiq tarzda belgilang.**

- 1) Yodgora Nasriddinova; 2) Sharof Rashidov;  
3) Nazar Matchonov; 4) Inomjon Usmonxo'jayev.  
a) 1950–1959-yy.; b) 1959–1970-yy.;  
c) 1970–1978-yy.; d) 1978–1983-yy.

- A) 1-b, 2-a, 3-c, 4-d  
B) 1-a, 2-b, 3-e, 4-d  
C) 1-a, 2-c, 3-d, 4-b  
D) 1-b, 2-c, 3-d, 4-a

**32. O'zbekistonda kim o'zbekistonliklarni fashizmga qarshi kurashga safarbar qilishga boshqosh bo'ldi?**

- A) Akmal Ikromov  
B) Fayzulla Xo'jayev  
C) Usmon Yusupov  
D) Sharof Rashidov

**33. Urushdan keyingi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotining bir tomonlama rivojlanib borishiga qanday omil sabab bo'lgan?**

- A) respublikada aholi sonining kamligi tufayli yetarlıcha ishchi kuchining bo'lmaganligi  
B) respublikaning faqat xomashyo yetkazib beruvchi chekka o'lka ekanligi  
C) respublikaning markazdan uzoq hududda joylashganligi  
D) respublikaning asosan mamlakat uchun platsdarm vazifasini o'taganligi

**34. O'zbekistonlik jangchilardan necha nafari “Berlinni ishg'ol etganligi uchun” jangovar medali bilan taqdirlangan?**

- A) 1753 nafar B) 1706 nafar  
C) 280 nafar D) 26 nafar

**35. O'zSSR rahbarlaridan qaysi biri I.V.Stalingra ichki ishlar xalq komissarligida, uning bo'limlerida eng ko'p qamoqqa olish uchun musobaqa e'lon qilinganligi haqida maktub yo'llagan edi?**

- A) Nuriddin Muhiddinov B) Sharof Rashidov  
C) Usmon Yusupov D) Amin Niyozov

**36. Belorussiyani ozod qilish uchun janglarida 1943-yil noyabrda Gomel shahri atrofida halok bo'lgan o'zbek shoiri kim edi?**

- A) Turob To'la B) Sulton Jo'ra  
C) Hamid Olimjon D) Mirzakalon Ismoilov

**37. Urush yillarda yetim qolgan bolalarni o'z tarbiyasiga olgan quyidagi shaxslarning qayerlik ekanini aniqlang.**

- 1) H.Samadov; 2) F.Qosimova;  
3) Sh.Shomahmudov.  
a) toshkentlik; b) samarqandlik; c) kattaqo'rg'onlik.  
A) 1-c; 2-b; 3-a B) 1-a; 2-c; 3-b  
C) 1-a; 2-b; 3-c D) 1-c; 2-a; 3-d

**38. Quyidagi O'zbekiston SSR rahbarlarini ular davrida amalga oshirilgan tadbirlar bilan mos ravishida joylashtiring.**

- a) Amin Niyozov; b) Sobir Kamolov; c) Nuritdin Muhiddinov.

1) Islom diniga erkinliklar berdi; 2) O'zbekistonda kadrlarni mahalliylashtirish jarayoni ommaviy ravishda amalga oshirila boshlandi; 3) paxta xarid narxini oshirishni Markaz oldiga qo'yidi; 4) O'zbekiston ziyo-lilariga nisbatan qatag' onchilik siyosati olib borildi; 5) O'zbek ziyo-lilariga oqlanishida tashabbuskorlik ko'rsatdi.

- A) a – 4; b – 1, 2; c – 3, 5  
B) a – 5; b – 1; c – 2, 3, 4  
C) a – 3, 4; b – 2; c – 1, 5  
D) a – 2, 5; b – 1; c – 3, 4

**39. O'zbekiston Fanlar akademiyasining birinchi prezidentini qilib kim saylandi?**

- A) Qori Niyoziy B) Sadreddin Ayniy  
C) G'afur G'ulom D) Ibrohim Mo'minov

**40. Sharof Rashidov O'zbekiston rahbari sifatida quyidagi qaysi jabhalarda o'zini namoyon qildi?**

- 1) paxtachilikni rivojlantirish; 2) yangi yerlarni o'zlashtirish; 3) 1966-yildan keyin Toshkentni qayta tiklash; 4) yangi sanoat quvvatlarini ishga tushirish; 5) Toshkent metropolitenini ishga tushirish; 6) aholiga diniya erkinliklar berish.

- A) 1, 2, 3, 5 B) 1, 3, 4, 5  
C) 3, 4, 5, 6 D) 1, 2, 4, 6

**41. O'zbekistonda II jahon urushidan keyingi dastlabki yillarda ochilgan neft konlarini aniqlang.**

- 1) Ko'kdumaloq; 2) Jarqo'rg'on; 3) Janubiy Olamushuk; 4) Polvontosh; 5) Janubiy Muborak.

- A) 4, 5 B) 1, 2 C) 3, 4 D) 2, 5  
42. Quyidagi qaysi mahalliy rahbar 1957–1961-yillarda KPSS MK Prezidiumi a'zosini va KPSS MK ideologiya sekretari kabi mas'ul lavozimlarda ishlagan?

- A) Nuriddin Muhiddinov B) Sharof Rashidov  
C) Usmon Yusupov D) Amin Niyozov

**43. 1956-yilda O'zbekistonda quyidagi yangiliklardan qaysilarini joriy qilingan?**

- 1) paxta xarid narxlarini oshirish; 2) ustama mukofotlar to'lashning yangi tartibi; 3) suv uchun to'lanadigan haqni bekor qilish; 4) mineral o'g'itlar narxini pasaytiishi; 5) 8 yillik majburiy ta'lrim; 6) 10 yillik ta'lrim tizimi.

- A) 1, 2, 3, 4 B) 2, 3, 4, 6  
C) 1, 3, 5 D) 2, 4, 6

**44. Nafaqat O'zbekistonda yoki SSSRda, balki butun Sharqda parlament raisi bo'lgan birinchi ayol kim?**

- A) Svetlana Ortikova B) Tanzila Norboyeva  
C) Yodgora Nasriddinova D) Ma'suma Qoriyeva

**45. 1950-yil 1-sentabrdagi ... .**

- A) O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining masfuraviy masalalarga bag'ishlangan X plenumi bo'lib o'tdi

B) KPSS MK va SSSR Ministrler Sovetining “Paxta yesitshtirishni ko'paytirmoq uchun O'zbekiston SSR va Qozog'iston SSRdagi Mirzacho'ning qo'riq yerlarini sug'orish to'g'risida”gi qarori qabul qilindi

- C) O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi (O'zSSR FA) tashkil topdi

D) O'zbekiston Kompartiyasi MKning “O'zbekiston Fanlar akademiyasining ishi to'g'risida”gi qarori qabul qilindi

Jalol BOLTAYEV,

Urganch davlat universiteti talabasi, repetitor

### 28-VARIANT TESTLARINING JAVOBLARI

ONA TILI														
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
A	B	C	D	A	B	C	D	A	D	B	B	C	D	A
MATEMATIKA														
16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30
B	B	C	C	B	A	A	B	B	B	A	D	C	A	B
O'ZBEKİSTON TARİXI														
31	32	33	34	35	36	37	38	39	40	41	42	43	44	45
A	C	B	B	C	B	A	A	A	A	C	A	A	C	D

### Iftixor

## O'zbekistonlik ekanimdan faxrlanaman



Mahallamizdag'i bir kishining Arabistonda qarindoshlari bor ekan. Besh-olti yil avval o'sha qarindoshi mehmonga kelibdi. Bomdod namozini o'qigach, tonggi havodan bahramand bo'lish uchun ko'chaga chiqibди. Qarasa, yon qoshnining kelini ariqda oqib turgan svudan olib, shakarob qilib sepatoytan ekan. Mehmon dastlab bu holatning sababini tushunmabdi. Hayrat va ta'ajjub aralash izoh so'rabi. Mezbon supurilayotgan yer changimasi uchun suv sepilishi lozimligini tushuntirishga urinibdi. Ammo mehmon buni sira qabul qila olmasmish.

— Evoh! Nahotki, shundoq zilol suvni yerga to'kib yuborish mumkin bo'lsa?! — debdi u ko'zlarida jaldir-jaldir yosh bilan.

Qarangki, biz uchun oddiy-odatiy hisoblangan hodisa – ariqlarida sunving oqib yotishi kimlardi uchun chinakam mo'jizaning o'zg'inasini ekan!

Yaponiyaga borgan o'zbekistonlik sayyoh nedir sabab bilan dorixonaga kiribdi. U yerda maxsus qutiga solingan qimmatbaho doriga ko'zi tushibdi. U yer-

da yurak dorisi sifatida e'zozlanib, antiqa qutichalarga joylangan o'sha malham bir dona o'zimizning subhon o'rigi ekan!

Aslida har birimiz kunda-kunora bu kabi ajoyib voqealarga duch kelishimiz aniq. Lekin ko'p hollarda ular zamirida gi ma'no-mazmunga e'tibor qaratavermaymiz. Yurtimiz tabiatni va uning qurʼati qadralashning uddasidan chiqavermaymiz. Atoqli shoirimizning “Men nechun sevaman O'zbekistonni?”

degan savolini o'zimizga berib ko'rsak va uning asl javobini izlasak, shu javoblarning o'zi tom-tom kitob bo'lishi tabiiy.

Mo'tadir ilqimi purviqor tog'lari, yer osti va yer usti boyliklari, unumador turpoq'i, shifobaxsh suvlari sharqirab yotgan makonimizning “janematkon” deya ulug'lanishi ham bejiz emas. Lekin Vatan faqat shu boyliklari tufayli suyumlumi? Yo'q, albatta! O'zbekistonni O'zbekiston qilib turgan, uning shunu sharafini dunyo uzra taratayotgan asosiy omil – XALQdir. Ilm-fanda, adabiyot, san'at, sport va madaniyatlarda ilg'or, shu bilan birga asriy qadriyatlariga ega millat ekanligimiz dunyo afkor ommasi tomonidan takror-takror e'tirof etiladi, bugungi avlod ham ajodal nomiga munosib bo'lmog'i lozim. Shunday avlodni tarbiyalash esa biz – o'qituvchilarning murakkab va muazzam burchimizdir.

O'tgan yili qiziq bir voqeal sodir

bo'ldi. O'g'limning Rossiyada ishlayotgan do'sti uyg'a qaytmoqchi bo'libdi. Qon-qarindoshlariga sovg'a-salom olish uchun eng mashhur supermarketlardan biriga kiribdi. Sotuvchidan sovg'a uchun munosib, sifati so'qimmatbaho buyumlarдан ko'rsatishini so'rabi. Sotuvchi uning iltimosini bajo aylab, qo'liga juda bejirim liboslar to'plamini tutqazibdi. Erakkalar ko'yligi, futbolka, sport formasini, sochiq, dastro'mol kabi sovg'alarining sifati, matosining asl paxtadan ekanligiga qiziqqan yigit buyumlarining yorlig'i qaraşa, ular O'zbekistonda ishlab chiqarilgan ekan!

O'sha do'sti o'g'limga nozik did bilan tikilgan futbolka, menga esa momiq sochiq hadya etdi. Har gal shu sochiqdan foydalanan ekanman, “O'zbekistonda ishlab chiqarilgan” degan yorliq bilan yer kurrasi bo'ylab targalayotgan mahsulotlarni ishlab chiqqagan hamyurtlarimdan minnatdon bo'lamani.

Kumushxon JO'RAYEVA,  
Namangan tumanidagi  
23-maktab o'qituvchisi

Boynazarov Odil Sharofovichning 06.01.01 — Umumiy dehqonchilik. Paxtachilik ixtisosligi bo'yicha "Yangi o'rta va ingichka tolali g'o'za navlarini parvarishlash agrotexnologiyasi elementlarini ishlab chiqish (Surxondaryo viloyati ning o'tloqlashib borayotgan och tusli bo'z tuproqlari sharoitida)" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiysi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/30.12.2019. Qx.42.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 4-may kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika MFY, PSUYAITI. Tel/faks: (78) 150-62-84, 150-61-37; e-mail piim@agro.uz, paxtauz@mail.ru

Norboev To'raning 23.00.01 — Siyosat nazariyasi va falsafasi. Siyosiy ta'limatlar tarixi va metodologiyasi ixtisosligi bo'yicha "O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning konseptual-metodologik masalalari" mavzusidagi (siyosiy fanlar bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Ss.01.08 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 27-aprel kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tdi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy, O'zbekiston Milliy universitetining Ijtimoiy fanlar fakulteti, 5-qavat, 511-xona. Tel/faks: (71) 246-52-74, 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz

Gulchexra Shuxratovna Gulyamovaning 14.00.11 — Dermatologiya va venerologiya ixtisosligi bo'yicha "Atopik dermatitiga tashxis qo'yish, uni davolash va profilaktik usullarini ishlab chiqish (klinik, genetik va immunologik tekshiruvlar)" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc. 04/30.12.2019.Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 7-may kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100140, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog'isharnol ko'chasi, 223-uy. Tel/faks: (71) 2623314; e-mail: mail@tashpmi.uz.

Inoyatov Dilshod Anvarovichning 14.00.11 — Dermatologiya va venrologiya ixtisosligi bo'yicha "Chegaralangan sklerodermiyani davolashda organizmnning molekulyar-biokimiyoviy ko'rsatkichlariga asoslangan holda takomillashtirish" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzuridagi, ilmiy darajalar beruvchi DSc. 04/30.12.2019.Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 7-may kuni soat 13:00daggi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100140, Toshkent shahri, Yunusobod tumani Bog'isharnol ko'chasi, 223-uy. Tel/faks: (71) 2623314; e-mail: mail@tashpmi.uz

Ergasheva Ra'no To'rayevnaning 10.00.01 — O'zbek tili ixtisosligi bo'yicha "O'zbek tilidagi aviatsiya terminlarining leksik-semantik va leksikografik xususiyatlari" mavzusidagi (filologiya ixtisosligi bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.70.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 8-may kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel/faks: (75) 225-34-13, 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz

Yaxshiyeva Zebo Rashidovnaning 10.00.02 — O'zbek adabiyoti ixtisosligi bo'yicha "Muhammad Alining "Ulug' saltanat" tetralogiyasida tarixiy voqe'lik va uning badiiy ifodasi" mavzusidagi (filologiya ixtisosligi bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.70.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 7-may kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel/faks: (75) 225-34-13, 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz

Qorayev Sherxon Po'latxonovichning 10.00.02 — O'zbek adabiyoti ixtisosligi bo'yicha "Temuriylar davri adabiy majlislari" (Alisher Navoiy qarashlari asosida)" mavzusidagi (filologiya ixtisosligi bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.70.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 8-may kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel/faks: (75) 225-34-13, 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz

Suyarova Nargiza Yuldashevnaning 10.00.01 — O'zbek tili ixtisosligi bo'yicha "Belgi" denotativ semali metaforalarning tasnifi, kognitiv strukturasi va leksikografik talqini" mavzusidagi (filologiya ixtisosligi bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.70.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 7-may kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel/faks: (75) 225-34-13, 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz

Raximov Ozodbek G'ułomovichning 01.03.01 — Astronomiya ixtisosligi bo'yicha "Umumiy nisbiylik nazariyasida burchak momentiga ega bo'lgan zaryadli va magnitlangan zarralarning harakati" mavzusidagi (fizika-matematika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Astronomiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019. FM.15.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 21-may kuni soat 11:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100052, Toshkent shahri, Astronomiya ko'chasi, 33-uy.

Tel/faks: (71) 235-81-02, 234-48-67; e-mail: igor@astrin.uz

Xalmatov Rustam Abduxatovichning 04.00.02 — Qattiq foydali qazilma konlarining geologiyasi, ularni qidirish va razvedka qilish. Metallogeniya va geokimyo ixtisosligi bo'yicha "Chotqol-Qurama mintaqasida oltinning geokimyosi, ma'dan tarkibi va metallogeniyasi (O'zbekiston)" mavzusidagi (geologiya-mineralogiya fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Mineral resurslar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.24/30.12.2019.GM.40.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 8-may kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, T.Shevchenko ko'chasi, 11-A-uy.

Tel/faks: (71) 256-13-49; e-mail: info@gpniimr.uz

Ibrohimov Bahodir Akmal o'g'lining 06.01.06 — Sabzavotchilik ixtisosligi bo'yicha "Noan'anaviy sabzavot ekinlaridan bamiya introduksiyasi, uni yetishtirish texnologiyasining ayrim elementlarini takomillashtirish (Toshkent viloyati misolda)" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/28.08.2020.Qx.13.03 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 4-may kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Tel/faks: (71) 260-48-00, 260-38-60; e-mail: tuag\_info@edu.uz

Ismaylov Dauletbay Uzakbayevichning 06.01.01 — Umumiy dehqonchilik. Paxtachilik ixtisosligi bo'yicha "Sho'r tuprog sharoitida tuprog unumdarligini oshiruvchi qisqa navbatli almarshab ekish tizimini ishlab chiqish" (Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida) mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/30.10.2020.Qx.126.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 5-may kuni soat 14:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 170600, Andijon viloyati, Andijon tumani, Olyigoh ko'chasi, 1-uy.

Tel/faks: (74) 373-10-54, 373-13-63; e-mail: agai\_info@edu.uz

Muxtidinova Kamila Shayaxmetovnaning 15.00.02 — Farmatsevtik kimyo va farmakognoziya ixtisosligi bo'yicha "O'simlik kompozitsiyasi asosida gepatoprotector vositasini ishlab chiqish va standartlash" mavzusidagi (farmatsevtika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent farmatsevtika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019. Far.32.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 12-may kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100015, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Oybek ko'chasi, 45-uy.

Tel/faks: (71) 256-37-38; e-mail: farmi@bcc.uz

Saidkarimova Nodira Botir qizining 15.00.02 — Farmatsevtik kimyo va farmakognoziya ixtisosligi bo'yicha "Raman spektroskopiya usulida antibiotik guruh dori vositalarining tahlil usullarini takomillashtirish" mavzusidagi (farmatsevtika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent farmatsevtika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019.Far.32.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 12-may kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100015, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Oybek ko'chasi, 45-uy.

Tel/faks: (71) 256-37-38; e-mail: farmi@bcc.uz

2010-yili Andijon davlat tillar pedagogika instituti tomonidan Mamadaliyeva Gulira'no Dilshodovna nomiga berilgan 366 B № 524489 raqamli diplom yo'qolganligi sababli

**BEKOR QILINADI.**

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti jamoasi ilm-fan bo'yicha direktor o'rinosari Manzura Otajonovaga onasi  
O'g'iljon aya IBODULLAYEVAning vafotи munosabati bilan ta'ziya izhor qiladi.

# TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

## KAFEDRALAR BO'YICHA PROFESSOR-O'QITUVCHILARNING BO'SH LAVOZIMLARIGA TANLOV E'LON QILADI

- "Vagonlar va vagon xo'jaligi kafedrasi" — professor, dotsent, katta o'qituvchi, assistent;
- "Lokomotivlar va lokomotiv xo'jaligi kafedrasi" — professor, katta o'qituvchi, assistent.
- "Materialshunoslik va mashinasozlik kafedrasi" — dotsent, katta o'qituvchi, assistent;
- "Transportda axborot tizimlari va texnologiyalari kafedrasi" — katta o'qituvchi, assistent;
- "Buxgalteriya hisobi kafedrasi" — kafedra mudiri, dotsent, katta o'qituvchi, assistent;
- "Iqtisodiyot kafedrasi" — dotsent, katta o'qituvchi, assistent;
- "Texnosfera xavfsizligi kafedrasi" — dotsent, katta o'qituvchi, assistent;
- "Transport intellektual tizimlari muhandisligi kafedrasi" — dotsent, katta o'qituvchi, assistent;
- "Transport logistikasi kafedrasi" — dotsent, katta o'qituvchi, assistent;
- "Transport harakatini tashkil etish kafedrasi" — kafedra mudiri, katta o'qituvchi, assistent;
- "Yuk transport tizimlari kafedrasi" — dotsent, katta o'qituvchi, assistent;
- "Amaliy mexanika kafedrasi" — dotsent, katta o'qituvchi, assistent;
- "Jismoniy tarbiya va sport kafedrasi" — assistent;
- "Ijtimoiy fanlar kafedrasi" — dotsent, katta o'qituvchi, assistent;
- "Informatika va kompyuter grafikasi kafedrasi" — dotsent, katta o'qituvchi, assistent;
- "Oliy matematika kafedrasi" — kafedra mudiri, dotsent, katta o'qituvchi, assistent;
- "Tabiiy fanlar kafedrasi" — dotsent, katta o'qituvchi, assistent;
- "O'zbek (rus) tili kafedrasi" — katta o'qituvchi, assistent;
- "Xorijiy tillar 1 kafedrasi" — katta o'qituvchi, assistent;



- "Xorijiy tillar 2 kafedrasi" — assistent;
  - "Elektr ta'minoti kafedrasi" — dotsent, assistent;
  - "Radioelektron qurilmalar va tizimlar" — dotsent;
  - "Elektrotexnika kafedrasi" — dotsent, katta o'qituvchi, assistent;
  - "Avtomobil va avtomobil xo'jaligi kafedrasi" — dotsent, katta o'qituvchi, assistent;
  - "Transport energetik qurilmalari kafedrasi" — professor, dotsent, katta o'qituvchi, assistent;
  - "Temir yo'l muhandisligi kafedrasi" — dotsent, katta o'qituvchi, assistent;
  - "Muhandislik kommunikatsiyalari va tizimlari kafedrasi" — professor, dotsent, katta o'qituvchi, assistent;
  - "Avtomobil yo'llarini qidiruv va loyihalash kafedrasi" — dotsent, katta o'qituvchi, assistent;
  - "Avtomobil yo'llarini qurish va ekspluatasiya qilish kafedrasi" — dotsent, katta o'qituvchi, assistent;
- "Ko'priklar va tonnellar kafedrasi" — dotsent, katta o'qituvchi, assistent;
  - "Avtomobil yo'llaridagi sun'iy inshootlar" — professor, katta o'qituvchi, assistent;
  - "Shahar yo'llari va ko'chalar kafedrasi" — katta o'qituvchi, assistent;
  - "Avtomatika va telemekhanika kafedrasi" — dotsent, katta o'qituvchi, assistent;
  - "Bino va sanoat inshootlari qurilishi kafedrasi" — professor, dotsent, assistent;
  - "Aeronavigatsiya tizimlari kafedrasi" — kafedra mudiri, professor, katta o'qituvchi, assistent;
  - "Aviatsiya injiniringi kafedrasi" — kafedra mudiri, katta o'qituvchi, assistent;
  - "Transport vositalari muhandisligi kafedrasi" — kafedra mudiri, dotsent, assistent;
  - "Mashinalar texnologik ishonchiligi kafedrasi" — dotsent, assistent;
  - "Texnologik mashinalar muhandisligi kafedrasi" — dotsent, katta o'qituvchi, assistent.

Kafedra mudiri lavozimi tanlovida tegishli ixtisoslik bo'yicha fan doktori ilmiy darajali, professor ilmiy unvoniga ega, shuningdek, kamida 5 yillik ilmiy-pedagogik ish stajiga ega bo'lgan, mazkur kafedraning ta'lim yo'naliishlari bo'yicha darsliklar va o'quv qo'llanmalar mualliflari bo'lgan fan nomzodi ilmiy darajasiga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan shaxslar ishtirot etishi mumkin.

Professor lavozimi tanlovida tegishli ixtisoslik bo'yicha fan doktori ilmiy darajali, professor ilmiy unvoniga ega, shuningdek, kamida 5 yillik ilmiy-pedagogik ish stajiga ega bo'lgan, mazkur kafedraning ta'lim yo'naliishlari bo'yicha darsliklar va o'quv qo'llanmalar mualliflari bo'lgan fan nomzodi ilmiy darajasiga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan shaxslar ishtirot etishi mumkin.

Dotsent lavozimi tanlovida ilmiy darajali, ilmiy unvonli hamda kamida 5 yillik ilmiy-pedagogik stajga ega, kafedra fanlari bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalar mualliflari bo'lgan oliy ma'lumotli shaxslar ishtirot etishlari mumkin.

Katta o'qituvchi lavozimi tanlovida oliy ma'lumotga ega bo'lgan (magistr, diplomli mutaxassis), shuningdek, ilmiy daraja va unvonga ega bo'lgan shaxslar qatnashishlari mumkin.

Assistent lavozimi tanlovida tegishli mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan (magistr, diplomli mutaxassis) shaxslar qatnashishlari mumkin.

Tanlovdan ishtirok etishni xohlovchilar universitet rektori nomiga ariza bilan kadrlarni hisobga olish bo'yicha shaxsiy varqa, avtobiografiya, diplomlar va attestatlar, pasport nusxalar, ilmiy ishlar va ixtirolar ro'yxati, malaka oshirganlik to'g'risida hujjatlardan nusxalar, hisobot (oxirgi 5 yil), saylov byulletenlari, hisob komissiyasi bayonnomasi (3 ta) topshiriladi.

Arizalar e'lon chiqqan kundan boshlab  
bir oy muddatda qabul qilinadi.

**Manzil:** Toshkent shahri, Odilxo'jayev ko'chasi, 1-uy, 236-xona.

**Ma'lumot uchun telefon:** (71) 299-00-15.

**Eslatma:** Mazkur oliy ta'lim muassasasida ishlovchi shaxslar o'rgan muddat bo'yicha kafedrada hisobot beradilar, chetdan tanlovdan ishtirok etuvchilar sinov darslari o'tkazadilar.

# "Do'st Olloh" ni eshitganmisiz?

Yangibozor tumanining Cho'bolonchi qishlog'i danman.

Qishlog'imiz aholisi milliy qadriyat va an'analarimizga humrat bilan qarashadi. Bolaligimda sumalak sayillari, milliy sport o'yinlari tez-tez o'tkazib turilardi. Hamqishloqlarimning yuzlarda hamisha yaxshilarga xayrixohlik, mehr-oqibat, andisha, samimiylik aks etib turadi.

Qishlog'imizda bir darvessifat otaxon yashardi. Ramazon oyining yarmi o'tgach, uch kun davomida yassaviyona ruhiyat, darveshona zikr bilan, Maxtumqli ohanglari xos tarzda yolg'iz o'zi tunda yurib qo'shiq xirgoyi qilardi. Qo'shiqning har bir bandi oxirida "Haq Mavlona, Haq diyordi, yo Ollohu do'st Ollohu" misrasi takrorlanardi. Qishloq ahli bu qo'shiqni o'z tilida "Do'sollo", qo'shiq aytuvchini esa "Do'sollochi" deyishadi. "Do'sollo" so'zi "do'st" va "Ollohu" so'zlarining xalq tilidagi qisqarshing shaklidir.

Yillar o'tib, otaxon vafot etdi. Uning bu savobli ishimi o'g'illaridan biri davom ettirapti. Ro'zayi ramazon oyida qishloq ahli "Do'sollo" aytiladigan kunlarni intiqlik bilan kutishadi. Bu kunlar yaqinlashgani sari odamlar ko'ngliga qandaydir yoqimli hislar paydo bo'ladi. Chunki Do'sollochining ovozi, so'zleri bandalarni Olloha yanada yaqinlashtirib, o'zligiga qaytargandek bo'ladi. Qo'shiq uylarga birma-bir borib aytildi, ko'chadan o'tib ketayotib, yo'l-yo'lakay aytib ketilaveradi. Lekin odamlar ko'proq eshitish uchun Do'sollochini to'xtatib, yana aytishimi so'rashadi. Tunda aytilayotgan aytim sadolari butun qishloq bo'ylab taraladi. Tun osudaligini buzmadi, aksincha, unga o'zgacha ajiblik baxsh etadi. Ko'chilik shu paytni kutib sergak yotgani uchun darrov uylaridan ko'chaga chiqishadi. Qattiqroq uyugqa ketgangan esa g'afflatda qolishadi. Do'sollochi odamlar to'planigan joyda bir muddat to'xtab aytadi. Aytib bo'lgach, yurtga tinchlik va osoyishtalik, bandalarga insof va diyonat, mehr-oqibat tilab fotiha qiladi.

"Do'sollo"ning aynan ramazon oyida aytishiga sabab insonlarning nafsimi jilovlab, ko'ngil va ruh poklighiga erishish ehtiyoji tufayli deb o'layman. Do'sollochi tilanchi emas, u tama yo'lida kezmaydi. Uning tun qorong'iligini chaqmoqday yoritib aytayotgan so'zleri ojiz bandalarni bu dunyoning o'tkinchiligidan ogohlantiradi, har qanday holatda ham sabr qiluvchilar qatorida bo'lishga, xayrli ishlardan qilishga undaydi, ko'ngillarga yorug'lik baxsh etadi. Ba'zan o'ylab qolaman, hamqishloqlarim orasida mehr-oqibat ustunligida, ziyoli insonlar ko'pligida, jinoyatchilik yo'qligida "Do'sollo"ni eshitib ulg'ayganimizning hissasi katta bo'lsa kerak.

Taqdir ekan, qishlog'imizdan 100 kilometr uzoqqa, Hazoraspning (hozir Tuproqqa'l'a tumanini) Pitnak qishlog'iga turmushga chiqdim. Ko'p o'tmay ramazon oyi kirib keldi. Men intiqlik bilan Do'sollochini kuta boshladim. Ramazon tugayapti hamki, undan darak yo'q. Hayron bo'lib, qaynonamdan so'radim: — Bu joylarda "Do'sollo" aytishmaydim? U kishi nima haqida gapirayotganimni tushumadi. Bilsam, "Do'sollo" aytish odati faqat bizning qishloqda bor ekan.

Keyinchalik "Do'sollo" eshitish uchun ramazon oylari qadrondan qishlog'imga borishni odat qildi. Shu mavsumda qishlog'imizga viloyatimizning turli hududlaridan mehnmonlar kelishadi. Ularni "Do'sollo" eshitishga bo'lgan ishtiyoyi, Ollohu ishq shunga undaydi. Ota uymiga farzandlarimni ham ramazonning o'talarida olib borishga harakat qilaman.

Kechalari sergak yotamiz. Bolalarimga milliy qadriyatlardan, din-u diyonat, halollik, mehr-oqibat haqida so'zlab

beraman. "Haq do'st, yo Ollohu" degan tanish aytimlar qulog'imizga chalinishi bilan tashqariga shoshilamiz. Egniga eski janda, boshiga ko'hna kuloh, beliga kashkul bog'lab yurgan, tirikchilik g'amini yemay, topganiga qanoat qilgan, mol dunyo, davlat u saltanat, kibr-u havo, manmanlikni tark etib, faqirona umr o'tkazishga so'zda va amalda harakat qilgan, tili-yu dilida "Yo Ollohu yo Ollohu, Haq do'st, yo Ollohu" ni zikr qilgan darveshlar-u qalandarlarni eslatuvchi Do'sollochi ko'rindi.

*... Kitob ushlab Haqni yodga olgaysan,  
Arshi a'lordan mehmönlig'ing bilgaysan,  
Mulla, xalfalardan ta'lim olgaysan,  
Ta'lismizga ta'lim bergen dunyo bu,  
Haq Mavlona, Haq diyordi, yo Ollohu do'st Ollohu.*

*Tong otgandan yugurtirar, yeldirar,  
Goh yig'latib, gohi avval kuldirar,  
Kimglargadir qilmas ishni qildirar,  
Yer ostidan javob so'ragan dunyo bu,  
Haq Mavlona, Haq diyordi, yo Ollohu do'st Ollohu.*

*Ey bandalar, to'g'ri so'zga tan bergil,  
Sendan savob, g'arib ko'rsang non bergil,  
Ko'ngil topgan do'st yo'linda jon bergil,  
Bu dunyoda xayr qilgan madaddur,  
Haq Mavlona, Haq diyordi, yo Ollohu do'st Ollohu...*

... Yana ramazon oyining o'talarini kelib qoldi. Men qadrondan qishlog'immi, "Do'sollo"ni sog'indim. Qadimiy aytimlarga ehtiyoj sezishimi qalbimizda Olloha bo'lgan ishonch va muhabbat, Haq yo'lida xayrli ishlardan, bir-birovg'a mehr-oqibatlari bo'lish, yetim-yesilarga muruvvat ko'rsatish, ruhiy poklikka intilish, eng asosiyisi, insoniylikni unutib qo'ymaslik istagi hosilasi deb o'layman. Qaniydi bu aytimlar barcha shahar-u qishloqlarda, ko'chalarda aytilsa. Zero, "Do'sollo" insonlarni o'tkinchi dunyoning arzimas tashvishlari deb din va diyonatni unutib qo'ymaslikku, bu dunyoning turli sinovlarini matonat bilan yengishga, Ollohdan kelganiga sabr va shukronalik hissini tuyishga, o'zidan yaxshi nom qoldirishga undovchi ulug' vor ohangdir.

Darhaqiqat, inson tarbiyasida, kamolotida an'analaramizning, qadriyatlar-u urf-odatlarimizning ahamiyati, hissasi katta. Shunday ekan, qadriyatlarimizdan aslo uzoqlashmaylik. Yet odatlarga ergashmaylik. Mudom yaxshilikning etagini tutaylik. Yolg'ondan, yomonlardan hazar qilaylik.

Munavvara NURMANOVA,  
Tuproqqa'l'a tumanidagi  
6-maktabning olyi toifali ona tilli va  
adabiyot fani o'qituvchisi



# Marifat

## TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,  
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,  
O'zbekiston Ta'lim va fan xodimlari kasaba  
uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida  
2006-yil 22-dekabrdan 0067-racqam bilan ro'yxatga olingan.  
Indeks: 149, 150, V-4651. Tiraji 10092.  
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan,  
qo'qoz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:  
qabulxona — (71) 233-50-55;  
kotibiyat — (71) 233-99-15;  
reklama va marketing bo'limi —  
(71) 233-42-92 (faks), (71) 233-56-00.



"Ma'rifat" dan  
materiallarni ko'chirib  
bosish tahririyat  
ruxsati bilan amalga  
oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan  
qo'lyozmalar taqiz  
qilinmaydi va mual  
lifga qaytarilmaydi.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.

Korxonalar manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

O'ZA yakuni — 21.30 Topshirildi — 22.40

1 2 3 4 5 6

**MANZILIMIZ:**  
100083, Toshkent shahri,  
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.  
Web-site: www.marifat.uz

**Dizaynerlar:** Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.  
**Navbatchi muharrir:** Sardor Mustafoev.  
**Navbatchi:** Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.



## Tug'ilgandan inson katta jangga tushgan...

*Bu dunyoda yo'llar ko'pdır, yo'l tilasang,  
Mag'rib-Mashriq tomon o'ng-u so'l tilasang.  
Zamonlardan mayoq kelar bir hikmat bor:  
Kitobni tut baxtga eltar qo'l tilasang.*

*Umr safar, har yeganing anjir emas,  
Dunyo ranjir, sen dunyodan ranjir emas.  
Fitratingda anglaganing ganj, sir emas,  
Havolardan "tolib" degan so'z tinglasang.*

*Xudoyimning kecha, kunduz chodiri bor,  
Har tirikning taqdır degan sodiri bor.  
Xazinaning noyobi bor, nodiri bor,  
Bitiklardan ma'rifatdek fan anglasang.*

*Tug'ilgandan inson katta jangga tushgan,  
Ko'rganlari ilm sari rangga tushgan.  
Kafilaringga ikiki yoqlig tanga tushgan —  
"Tazkirat ul-avliyo" ga o'girmasang...*

*Talabi bor komillikka yetsin safda,  
Bobolarning ibodati har bir harfdi.  
Chiroqlaring oydin yonsin xalq tarafda,  
To'rt fasl ham sunnat, farzim, deb gullasang.*

*Bahorlarni aldamasin sarob yuki,  
Shamol bilan ketar bari: sunning yuqi.  
Usqlaringga garzdor bo'lma, kitob o'qi,  
Nahot shuncha xazinadan bir to'lmاسانغ!*

Nargiza ODINAYEVA